2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 226 (1287), 2024-yil 7-noyabr, payshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

QARDOSH DAVLATLAR VA XALQLARIMIZ O‘RTASIDAGI KO‘P QIRRALI HAMKORLIK, O‘ZARO MANFAATLI VA DO‘STONA MUNOSABATLAR YANGI BOSQICHGA KO‘TARILMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning taklifiga binoan Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida ishtirok etish uchun 5-6-noyabr kunlari amaliy tashrif bilan Bishkek shahrida bo‘ldi.





Prezident Shavkat Mirziyoyev 6-noyabr kuni Bishkek shahrida Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida ishtirok etdi.

Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov raisligida o‘tgan tadbirda Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an, Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban va Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi Kubanichbek Omuraliyev ham qatnashdi.

Kun tartibiga muvofiq, tashkilot doirasidagi ko‘p qirrali hamkorlikning holati va istiqbollari yuzasidan fikr almashildi, amaliy sheriklikning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida Ostona va Shusha shaharlaridagi uchrashuvlardan keyingi vaqt mobaynida global geosiyosiy jarayonlar tobora murakkab tus olganini alohida ta’kidladi. Yetakchi davlatlar o‘rtasidagi raqobat va ishonchsizlik muhiti keskin kuchaymoqda, ziddiyat va urush o‘choqlari ko‘payib, turli xavf-xatarlar yanada ortmoqda.

Bu muammolar savdo, investitsiya, transport, energetika, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalardagi qo‘shma reja va katta loyihalarga jiddiy to‘siq bo‘lmoqda.

Shu ma’noda, siyosat va xavfsizlik masalalarida muloqotlarni tizimli davom ettirish, tashkilotga a’zo mamlakatlarning umumiy manfaatlaridan kelib chiqib, xalqaro muammolar bo‘yicha yakdil va aniq pozitsiyani faol ilgari surish maqsadga muvofiqligi ta’kidlandi.

Bu o‘rinda gap, eng avvalo, Yaqin Sharqda davom etayotgan adolatsiz urush va kuzatilayotgan ikki yoqlama standartlar haqida bormoqda.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI DAVLAT RAHBARLARI KENGASHI MAJLISIDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Avvalambor, go‘zal Bishkek shahrida sammitimiz yuksak darajada tashkil etilgani va ko‘rsatilayotgan an’anaviy mehmondo‘stlik uchun Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti hurmatli Sadir Nurg‘ojoyevich Japarovga samimiy minnatdorlik izhor etaman.

So‘nggi yillarda Qirg‘izistonda barcha sohalarda olib borilayotgan jadal islohotlar va tub o‘zgarishlarga hammamiz guvoh bo‘lib turibmiz. Bugun tadbirimiz o‘tayotgan ushbu muhtasham majmua ham bu so‘zlarimizning yaqqol dalilidir.

Mamlakatda siyosiy-ijtimoiy barqarorlik ta’minlanayotgani, zamonaviy sanoat va infratuzilma obyektlari barpo etilayotgani, davlatning xalqaro obro‘si va nufuzi oshayotgani yaqin qardosh sifatida bizni cheksiz quvontiradi.

Qirg‘iz tomonining Tashkilotimizda iqtisodiy integratsiya, umumiy taraqqiyot, raqamli kelajak va xavfsizlik yo‘nalishlarida sheriklikni asosiy maqsad etib belgilagan raisligi davri muvaffaqiyatli o‘tishiga tilakdoshman.

Fursatdan foydalanib, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich Toqayevni ham tuzilmamizda “Turkiy davr!” shiori ostida o‘tgan samarali raisligi bilan chin dildan tabriklayman.

Hurmatli hamkasblar!

Ming afsuski, Ostona va Shusha shaharlaridagi uchrashuvlarimizdan keyingi vaqt mobaynida global geosiyosiy jarayonlar tobora murakkab tus oldi. Yetakchi davlatlar o‘rtasidagi raqobat va ishonchsizlik muhiti keskin kuchaymoqda, ziddiyat va urush o‘choqlari ko‘payib, turli xavf-xatarlar yanada ortmoqda.

Albatta, bularning salbiy ta’siri va oqibatlarini davlatlarimiz har tomonlama sezib turibdi. Bu muammolar savdo, investitsiya, transport, energetika, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalardagi qo‘shma reja va katta loyihalarimizga jiddiy to‘siq bo‘lmoqda, desam, bu — ayni haqiqatdir.

Tashkilotimiz doirasida siyosiy va xavfsizlik masalalarida muloqotlarni tizimli davom ettirish, umumiy manfaatlarimizdan kelib chiqib, xalqaro muammolar bo‘yicha yakdil va aniq pozitsiyamizni faol ilgari surish maqsadga muvofiqdir.

Bu o‘rinda gap, eng avvalo, Yaqin Sharqda davom etayotgan adolatsiz urush va kuzatilayotgan ikki yoqlama standartlar haqida bormoqda. G‘azo sektori va Livandagi misli ko‘rilmagan gumanitar fojiani, tinch aholiga qarshi vayronkor hujumlarni, ayniqsa, begunoh bolalar, keksalar va ayollar qurbon bo‘layotganini hech narsa bilan oqlab bo‘lmaydi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Falastin qochoqlariga yordam berish bo‘yicha maxsus agentligi faoliyatini cheklashga qaratilgan harakatlarni ham keskin qoralaymiz.

Mazkur ko‘p yillik nizoning yagona yechimi — xalqaro me’yoriy hujjatlar va rezolyutsiyalarga muvofiq, 1967-yildagi chegaralar asosida, poytaxti Sharqiy Quddus bo‘lgan mustaqil Falastin davlatini tuzishdir.

Keyingi hafta Ar-Riyod shahrida o‘tadigan arab-musulmon davlatlari sammitida bu muammoga aniq siyosiy yechim topilishiga umid qilamiz.

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMONI

Z.T.MIRZAYEVNI TOSHKENT VILOYATI HOKIMI LAVOZIMIGA TAYINLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 15-bandi va 124-moddasiga asosan hamda xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining qaroriga muvofiq **Zoyir Toirovich Mirzayev** Toshkent viloyati hokimi lavozimiga tayinlansin.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 6-noyabr

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMONI

B.K.ZARIPOVNI BUXORO VILOYATI HOKIMI LAVOZIMIGA TAYINLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 15-bandi va 124-moddasiga asosan hamda xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashining qaroriga muvofiq **Botir Komilovich Zaripov** Buxoro viloyati hokimi lavozimiga tayinlansin.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 6-noyabr

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMONI

SH.B.UMURZAKOVNI TOSHKENT SHAHAR HOKIMI LAVOZIMIGA TAYINLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 15-bandi va 124-moddasiga asosan hamda xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining qaroriga muvofiq **Shavkat Buranovich Umurzakov** Toshkent shahar hokimi lavozimiga tayinlansin.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 6-noyabr

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMONI

X.X.BOZAROVNI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMI LAVOZIMIGA TAYINLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 15-bandi va 124-moddasiga asosan hamda xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining qaroriga muvofiq **Xayrullo Xayitbayevich Bozarov** Farg‘ona viloyati hokimi lavozimiga tayinlansin.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 6-noyabr

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMONI

M.B.AZIMOVNI QASHQADARYO VILOYATI HOKIMI LAVOZIMIGA TAYINLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 15-bandi va 124-moddasiga asosan hamda xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining qaroriga muvofiq **Murotjon Berdialiyevich Azimov** Qashqadaryo viloyati hokimi lavozimiga tayinlansin.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 6-noyabr

O‘ZBEKISTONNING TDTGA QO‘SHGAN HISSASI TASHKILOTNING XALQARO MAYDONDAGI MAVQEINI HAM, ICHKI ALOQALARINI HAM MUSTAHKAMLAYDI

XORIJIY EKSPERTLAR DAVLATIMIZ RAHBARINING BISHKEK SAMMITIDAGI ISHTIROKI HAQIDA

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 6-noyabr kuni Bishkek shahrida Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida ishtirok etdi.

Davomi 2-betda

2024-yil 7-noyabr, 226-son

Mintaqaviy ahamiyatga molik loyihalarga xalqaro moliya institutlari va xorijiy investitsiya kompaniyalarini jalb qilish muhimligi ta’kidlandi. Shu munosabat bilan Turkiy investitsiya forumini tashkil etish va uning birinchi yig‘ilishini O‘zbekistonda o‘tkazish taklif qilindi.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI DAVLAT RAHBARLARI KENGASHI MAJLISIDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

Xavfsizlik haqida to‘xtalganda, Afg‘oniston masalasi Tashkilotimiz doirasida doimo diqqatimiz markazida bo‘lishi lozim. Bu borada vazirlar va ekspertlar darajasidagi muntazam muloqot mexanizmini yo‘lga qo‘yish muhimdir.

Afg‘onistondagi o‘tkir muammolarni hal etishda amaldagi hukumatga yordam ko‘rsatish, bu davlatni mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga keng jalb etish, ijtimoiy va infratuzilma loyihalarini ro‘yobga chiqarish masalalari albatta ko‘rib chiqilishi lozim, deb hisoblaymiz.

Hurmatli davlat va hukumat rahbarlari!

Bugun Tashkilotimizning tarixiy hujjati — Turkiy dunyo xartiyasining qabul qilinishi qardosh davlatlar va xalqlarimiz o‘rtasida kuchayib borayotgan ko‘p qirrali hamkorlikning yorqin ifodasidir. Aminmanki, biz shu asosda Turkiy dunyoni yanada jipslashtirish, uning mavqeini oshirish, o‘zaro manfaatli va do‘stona aloqalarimizni chuqurlashtirish, hamkorligimizni yangi bosqichga ko‘tarishga erishamiz.

Sammitimiz kun tartibidan kelib chiqib, bir qator ustuvor yo‘nalishlarga e’tiboringizni qaratmoqchiman.

Birinchidan, davlatlarimiz o‘rtasidagi ikki va ko‘p tomonlama hamkorlikning bugungi yuqori darajasidan kelib chiqib, Tashkilotimizning asosiy shartnomaviy-huquqiy bazasini kengaytirish va mustahkamlash tarafdorimiz.

Biz Turkiy davlatlarning strategik sheriklik, abadiy do‘stlik va qardoshligi to‘g‘risidagi shartnomani qabul qilishni taklif etamiz. O‘ylaymanki, ushbu keng qamrovli xujjatning ishlab chiqilishi tuzilmamiz faoliyatini yanada yuksak siyosiy pog‘onaga ko‘taradi.

Ikkinchidan, Tashkilotimiz doirasida yangi iqtisodiy imkoniyatlar makonini yaratish bo‘yicha niyatimiz qat’iydir.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunda davlatlarimizning tashqi tovar aylanmasida o‘zaro savdomiz ulushi ancha past darajada qolmoqda. Importimizning salmoqli qismi uchinchi davlatlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu borada vaziyatni keskin o‘zgartirish vaqti keldi.

Eng avvalo, tarif va notarif to‘siqlarni bartaraf etish, savdo-bojxona tartib-qoidalarini yengillashtirish, elektron tijorat platformalarini rivojlantirish bo‘yicha aniq bitim va kelishuvlar ishlab chiqish lozim.

Savdo sohasidagi salohiyatimizni kengaytirishga qaratilgan chuqur tadqiqotlar olib borish uchun yaqin istiqbolda Toshkentda yetakchi milliy tahlil markazlarimizning anjumanini o‘tkazish ayni muddao bo‘lar edi.

Kelgusi yil uchun iqtisodiy forum, savdo va sanoat ko‘rgazmalari, mintaqa va viloyatlarimizning o‘zaro tashrif rejalarini, davlat xaridlarida ishtirok etish, kooperatsiya va lokalizatsiya qo‘shma dasturini qabul qilishimiz kerak. Bu ustuvor vazifalarni mamlakatlarimizning Bosh vazir o‘rinbosarlari zimmasiga yuklasak, albatta natijasi tezda ko‘rinadi.

Uchinchidan, bugungi og‘ir global iqtisodiy sharoitda eng dolzarb muammo — bu investitsiya jarayonlarining uzluksizligini ta’minlashdir.

Jahon moliya bozorida kapitalga bo‘lgan talab va uning narxi tobora oshib bormoqda. Rivojlanayotgan davlatlar uchun uzoq muddatli va “yashil” kreditlar ajratish shartlari qiyinlashmoqda.

Biz Tashkilotimiz doirasida moliyaviy instrumentlarni joriy etishga jiddiy e’tibor qaratishimiz kerak. Turkiy investitsiya jamg‘armasi ishini faollashtirish, bizning tashabbusimiz bo‘lgan Turkiy rivojlanish bankini tashkil etish masalalarini ko‘rib chiqishimiz zarur, deb hisoblaymiz.

Mintaqaviy ahamiyatga ega loyihalarga xalqaro moliya institutlari va chet el investitsiya kompaniyalarini keng jalb etish ham dolzarb vazifadir. Bu borada Turkiy investitsiya forumini tashkil etishni taklif qilamiz va uning ilk tadbirini O‘zbekistonda o‘tkazishga tayyormiz.

To‘rtinchidan, yana bir ustuvor masala — bu transport koridorlaridan samarali foydalanishdir.

O‘rta koridor bo‘ylab tranzit tariflarini maqbullashtirish, chegaralardan o‘tish jarayonlarini soddalashtirish, zamonaviy logistika tizimlari va qo‘shma operatorlarni yaratish umumiy manfaatlarimizga to‘la javob beradi.

Tashkilotimiz doirasidagi tashuvlarda elektron hujjatlar aylanmasiga o‘tish va ularni o‘zaro tan olish bo‘yicha ko‘p tomonlama bitimni imzolashga chaqiramiz.

Bunday dolzarb masalalarni biznes vakillari ishtirokida muhokama qilish maqsadida Turkiy davlatlar logistika markazlari va yuk tashuvchilari alyansi bilan hamkorlikda Xalqaro logistika konferensiyasini o‘tkazishni taklif etamiz.

Beshinchidan, kelajak iqtisodiyotini keng joriy etishga qaratilgan Raqamli turkiy dunyo konsepsiyasini ishlab chiqish tashabbusini ilgari suramiz.

Mazkur konsepsiya mamlakatlarimizda to‘plangan ilg‘or tajriba va IT sohasidagi yutuqlarni o‘zaro almashish, innovatsiya, infratuzilma va ilm-fan bo‘yicha raqamli tizimlarni, yirik data-markazlarini yaratishga xizmat qiladi.

Oltinchidan, kelgusi hafta Bokuda COP-29 global sammiti o‘z ishini boshlashi bilan Ozarbayjon Prezidenti, hurmatli Ilhom Haydarovich Aliyevni yana bir bor samimiy tabriklab, katta omadlar tilayman.

Iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq o‘tkir ekologik muammolarga yechimlar topish maqsadida vazirlar darajasidagi Turkiy ekologik kengashni tezroq tuzish zarurligini ta’kidlab, uning birinchi uchrashuvini kelgusi yili O‘zbekistonda o‘tkazishga tayyorligimizni bildiramiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Qardosh xalqlarimizni bir-biriga yanada yaqinlashtirish, yoshlarimizni ajdodlarimizga munosib ruhda tarbiyalash maqsadida turkiy ellar folklorining ko‘p jildli majmuasini a’zo mamlakatlar tillarida nashr etsak, manzur ish bo‘lar edi.

Bu borada “Turkiy mamlakatlar tarixi” kabi fundamental tadqiqotlarni birgalikda yaratish dolzarb vazifamizdir. Shu bilan birga, turkiy tillardan bevosita tarjima qilishni rag‘batlantirish, maktablarimizda turkiy xalqlar va ularning tarixi, etnografiyasi, madaniyati va san’ati haqida fakultativ darslarni yo‘lga qo‘yish lozim, deb o‘ylayman.

Shu o‘rinda O‘zbekistonning Turkiy madaniyat va meros jamg‘armasiga to‘laqonli a’zo bo‘lishga tayyorligini bildiraman.

Qadrli do‘stlar!

Bugun “Turkiy dunyo Oliy ordeni” bilan mukofotlanayotgan Vengriya Bosh vaziri hurmatli Viktor Orban janoblarini qizg‘in tabriklayman.

So‘zimning yakunida bir fikrni alohida ta’kidlamoqchiman.

Tashkilotimiz doirasidagi amaliy hamkorligimiz shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda o‘z pozitsiyalarimizni mustahkamlash, turli tahdid va yangi xavf-xatarlarning oldini olish, aloqalarimizni yanada chuqurlashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Aminmanki, bugungi sammitimiz natijalari Turkiy sivilizatsiyani yuksaltirish borasidagi ulkan rejalarimizga munosib hissa qo‘shadi.

QARDOSH DAVLATLAR VA XALQLARIMIZ O‘RTASIDAGI KO‘P QIRRALI HAMKORLIK, O‘ZARO MANFAATLI VA DO‘STONA MUNOSABATLAR YANGI BOSQICHGA KO‘TARILMOQDA

Boshlanishi 1-betda

G‘azo sektori va Livandagi misli ko‘rilmagan gumanitar fojia, tinch aholiga qarshi vayronkor hujumlar, ayniqsa, begunoh bolalar, keksalar va ayollar qurbon bo‘layotgani alohida qayd etildi. Shu munosabat bilan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Falastin qochoqlariga yordam berish bo‘yicha maxsus agentligi faoliyatini cheklashga qaratilgan harakatlar qoralandi.

Mazkur ko‘p yillik nizoning yagona yechimi — xalqaro me’yoriy hujjatlar va rezolyutsiyalarga muvofiq 1967-yildagi chegaralar asosida, poytaxti Sharqiy Quddus bo‘lgan mustaqil Falastin davlatini tuzish ekani ta’kidlandi.

Keyingi hafta Ar-Riyod shahrida o‘tadigan arab-musulmon davlatlari sammitida bu muammoga konstruktiv siyosiy yechim topilishiga umid bildirildi.

Afg‘onistondagi vaziyatga alohida e’tibor qaratildi. Bu borada vazirlar va ekspertlar darajasidagi muntazam muloqot mexanizmini yo‘lga qo‘yish muhimligi qayd etildi.

Afg‘onistondagi o‘tkir muammolarni hal etishda amaldagi hukumatga yordam ko‘rsatish, bu davlatni mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga keng jalb etish, ijtimoiy va infratuzilma loyihalarini ro‘yobga chiqarish masalalari albatta ko‘rib chiqilishi lozimligi ko‘rsatib o‘tildi.

Tarixiy hujjat — Turkiy dunyo xartiyasining qabul qilinishi qardosh davlatlar va xalqlarimiz o‘rtasida kuchayib borayotgan ko‘p qirrali hamkorlikning yorqin ifodasi ekani alohida ta’kidlandi.

Sammit kun tartibidan kelib chiqib, O‘zbekiston yetakchisi bir qator ustuvor masalalarga to‘xtalib o‘tdi.

Avvalo, davlatimiz rahbari tashkilotning shartnomaviy-huquqiy bazasini kengaytirish va mustahkamlash muhimligini ta’kidladi. Shu ma’noda, Turkiy davlatlarning strategik sheriklik, abadiy do‘stlik va qardoshlik to‘g‘risidagi shartnomani qabul qilish taklif etildi.

Shuningdek, tashkilot doirasida yangi iqtisodiy imkoniyatlar makonini yaratish maqsadida tarif va notarif to‘siqlarni bartaraf etish, savdo-bojxona tartib-qoidalarini yengillashtirish, elektron tijorat platformalarini rivojlantirish bo‘yicha aniq bitim va kelishuvlarni ishlab chiqish tashabbusi ilgari surildi.

Shu munosabat bilan savdo sohasidagi salohiyatni kengaytirishga qaratilgan chuqur tadqiqotlar olib borish uchun yaqin istiqbolda Toshkentda yetakchi tahlil markazlarining anjumanini o‘tkazish taklif qilindi.

Kelgusi yil uchun iqtisodiy forum, savdo va sanoat ko‘rgazmalari, mintaqa va viloyatlarning o‘zaro tashrif rejalarini, davlat xaridlarida ishtirok etish, kooperatsiya va lokalizatsiya qo‘shma dasturini qabul qilish kerakligi ta’kidlandi.

Jahon moliya bozorida kapitalga bo‘lgan talab va uning qiymati ortib bormoqda, rivojlanayotgan davlatlarga uzoq muddatli va “yashil” kreditlar ajratish shartlari murakkablashmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, moliyaviy instrumentlarni joriy etish, Turkiy investitsiya fondi faoliyatini faollashtirish va Turkiy taraqqiyot bankini tashkil etish zarurligi ta’kidlandi.

Shuningdek, mintaqaviy ahamiyatga molik loyihalarga xalqaro moliya institutlari va xorijiy investitsiya kompaniyalarini jalb qilish muhimligi ta’kidlandi. Shu munosabat bilan Turkiy investitsiya forumini tashkil etish va uning birinchi yig‘ilishini O‘zbekistonda o‘tkazish taklif qilindi.

Transport yo‘laklaridan samarali foydalanish, O‘rta yo‘lak bo‘yicha tranzit tariflarini maqbullashtirish, chegaralarni kesib o‘tish jarayonlarini soddalashtirish, zamonaviy logistika tizimlari va qo‘shma operatorlarni yaratish yana bir ustuvor masala sifatida belgilandi.

Tashkilot doirasida tashishlarda elektron hujjat aylanishiga o‘tish va ularni o‘zaro tan olish bo‘yicha ko‘p tomonlama bitimni imzolash tashabbusi ilgari surildi.

Ushbu masalalarni biznes vakillari ishtirokida batafsil muhokama qilish maqsadida Turkiy davlatlar logistika markazlari va yuk tashuvchilar alyansi bilan hamkorlikda Xalqaro logistika konferensiyasini o‘tkazish dolzarbligi qayd etildi.

Bu galgi sammit mavzusini qo‘llab-quvvatlash maqsadida kelajak iqtisodiyotini keng joriy etish, shuningdek, axborot texnologiyalari sohasida ilg‘or tajriba va yutuqlarni almashish, innovatsiyalar, infratuzilma va ilm-fanning raqamli tizimlarini, yirik ma’lumotlar markazlarini yaratishga qaratilgan “Raqamli turkiy dunyo” konsepsiyasini ishlab chiqish taklif etildi.

O‘zbekiston yetakchisi Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyevni kelgusi haftada Boku shahrida COP-29 Global sammiti ish boshlashi bilan samimiy qutlab, iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq o‘tkir ekologik muammolarga yechim topish uchun vazirlar darajasida Turkiy ekologiya kengashini tez fursatda tashkil etish zarurligini ta’kidladi hamda uning birinchi uchrashuvini kelgusi yilda O‘zbekistonda o‘tkazishga tayyorligini tasdiqladi.

Qardosh xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish, yoshlarni ajdodlarimizga munosib ruhda tarbiyalash maqsadida tashkilotga a’zo mamlakatlar tillarida turkiy xalqlar og‘zaki ijodining ko‘p jildlik to‘plamini nashr etish, birgalikda fundamental tadqiqotlar olib borish, maktablarda turkiy xalqlar va ularning tarixi, etnografiyasi, madaniyati va san’ati bo‘yicha fakultativ darslarni yo‘lga qo‘yish muhimligi ta’kidlandi.

Shu ma’noda, O‘zbekiston Turkiy madaniyat va meros jamg‘armasining to‘laqonli a’zosi bo‘lishga tayyorligi bildirildi.

So‘zining yakunida O‘zbekiston Prezidenti Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbanni Turkiy dunyoning oliy ordeniga sazovor bo‘lgani bilan samimiy tabrikladi.

Sammit yakunida Bishkek deklaratsiyasi, mamlakatimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan Turkiy dunyo xartiyasi, shuningdek, hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha qator kelishuvlar qabul qilindi.

Turkiy davlatlar tashkiloti sammiti doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘ziga ajratilgan qarorgohda Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban bilan uchrashuv o‘tkazdi.

O‘zbekiston — Vengriya strategik sheriklik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

O‘zaro hamkorlikning amaliy natijalari alohida mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash ko‘rsatkichlari va sanoat kooperatsiyasi ko‘lami ortib bormoqda, Toshkent viloyatida industrial park tashkil etish ishlari olib borilmoqda. Oktyabr oyida Qo‘qon shahrida birinchi Hududlar forumi o‘tkazildi. Bu oyda Budapesht shahrida muhim qo‘shma madaniy tadbirlar bo‘lib o‘tadi.

Davlat rahbarlari ikki tomonlama tadbirlar rejasini ko‘rib chiqdilar. Yetakchi kompaniyalarning savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik bo‘yicha yangi loyihalar portfelini shakllantirish muhimligi alohida ta’kidlandi.

Mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qirg‘iz Respublikasiga amaliy tashrifi yakunlandi.

O‘zA

O‘ZBEKISTONNING TDTGA QO‘SHGAN HISSASI TASHKILOTNING XALQARO MAYDONDAGI MAVQEINI HAM, ICHKI ALOQALARINI HAM MUSTAHKAMLAYDI

XORIJIY EKSPERTLAR DAVLATIMIZ RAHBARINING BISHKEK SAMMITIDAGI ISHTIROKI HAQIDA

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida siyosat va xavfsizlik masalalarida muloqotlarni tizimli davom ettirish, tashkilotga a’zo mamlakatlarning umumiy manfaatlaridan kelib chiqib, xalqaro muammolar bo‘yicha yakdil va aniq pozitsiyani faol ilgari surish maqsadga muvofiqligini ta’kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning mazkur sammitdagi nutqi xalqaro ekspert va tahlil doiralari vakillari tomonidan yuqori baholanmoqda.

Xesus XIL,
Madrid avtonom universitetining Osiyo tadqiqotlari markazi professori, Ispaniya Sharqshunoslari uyushmasi bosh kotibi, turkshunos:

— O‘zbekiston turkiy mamlakatlarning iqtisodiy integratsiyasi, barqaror rivojlanishi va raqamli kelajagiga qaratilgan tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlab, TDTning strategik kun tartibini shakllantirishda faol ishtirok etyapti. Mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash va asosiy xalqaro muammolar bo‘yicha yagona pozitsiyani ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda, bu TDT mamlakatlariga global muammolarni yanada ishonchli hal etish imkonini beradi.

O‘zbekiston tashabbusi bilan qabul qilingan Turkiy dunyo xartiyasi respublikaning tashkilotdagi yetakchilik rolining yorqin namunasidir. Ushbu hujjat turkiy davlatlarning birdamlik, yaqindan madaniy-iqtisodiy hamkorlik qilish va mintaqaviy aloqalarni mustahkamlash borasidagi mushtarak intilishlarini aks ettiradi. Bundan tashqari, O‘zbekiston savdo va bojxona to‘siqlarini bartaraf etish, savdo, transport va raqamli texnologiyalarni rag‘batlantirish uchun shart-sharoit yaratish, shuningdek, qo‘shma ijtimoiy va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha muhim takliflarni ilgari surdi.

O‘zbekiston Turkiy investitsiya forumini tashkil etishga chaqiruvi orqali xalqaro sarmoyalarni jalb qilish va mintaqaviy iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga sodiqligini namoyish etmoqda. Bu takliflar moliya institutlarini tashkil etish va transport yo‘laklarini mustahkamlash g‘oyalari bilan bir qatorda O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy o‘sish bo‘yicha uzoq muddatli istiqbollarini aks ettiradi.

O‘zbekiston madaniy darajada turkiy merosni o‘rganish va asrab-avaylash bo‘yicha tashabbuslarni faol qo‘llab-quvvatlaydi. Bu turkiy tilli mamlakatlar xalqlari o‘rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlashga yordam beradi, bilim almashish uchun muhim platforma yaratadi. Ayniqsa, yoshlarni o‘z xalqlarining tarixi va an’analariga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

> **Ta’kidlash kerakki, rasmiy Toshkentning TDTga qo‘shgan hissasi tashkilotning xalqaro maydondagi mavqeini ham, ichki aloqalarini ham mustahkamlaydi.**

> **TDT sammitida Samarqand, Ostona va Shushada bo‘lib o‘tgan avvalgi sammitlarda ilgari surilgan tashabbuslarni o‘z ichiga olgan Bishkek deklaratsiyasining qabul qilinishi uning ko‘p tomonlama rivojlanishga sodiqligini yaqqol namoyon etadi.**

Xolid Taymur AKRAM,
“Umumiy kelajak jamiyati” tahlil markazi ijrochi direktori (Pokiston):

— Pokistonlik ekspert sifatida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiy davlatlar tashkiloti rivojiga qo‘shgan hissasi va turkiy hamkorlikni mustahkamlash borasidagi tinimsiz sa’y-harakatlarini yuksak baholayman.

TDT sammitida Samarqand, Ostona va Shushada bo‘lib o‘tgan avvalgi sammitlarda ilgari surilgan tashabbuslarni o‘z ichiga olgan Bishkek deklaratsiyasining qabul qilinishi uning ko‘p tomonlama rivojlanishga sodiqligini yaqqol namoyon etadi.

Iqtisodiy rivojlanish, madaniy hamkorlik va ijtimoiy barqarorlik kabi muhim masalalarni qamrab olgan ushbu takliflar O‘zbekistonning turkiy dunyo integratsiyasi harakatlantiruvchi kuchi sifatidagi rolini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2023-yilda Ostona shahrida taklif etilgan Turkiy dunyo xartiyasi alohida ahamiyatga ega. Ushbu hujjat birlik ramziga aylanadi va TDT mamlakatlari o‘rtasida umumiy qadriyatlar hamda strategik manfaatlarga asoslangan uzoq muddatli hamkorlik uchun asos yaratadi.

Ishonchim komilki, Xartiya ishtirokchi mamlakatlarning hamjihatligini mustahkamlaydi, global va mintaqaviy muammolarni hal etishga qaratilgan sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirishda amaliy vosita bo‘ladi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston yetakchisining tashabbuslari TDTning strategik kun tartibini yanada aniqlashtirishga xizmat qiladi. Ekspert sifatida men ushbu tashabbuslar Pokiston uchun TDT bilan hamkorlikni mustahkamlashdan manfaatdor bo‘lgan katta imkoniyatlar yaratayotganini ko‘ryapman.

> **O‘zbekiston yetakchisining nutqi turkiy xalqlarning madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan o‘zaro bog‘liqligi ta’kidlangani bilan katta taassurot qoldirdi. O‘zbekistonning rivojlanishi qo‘shni davlatlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, butun Markaziy Osiyoda umumiy taraqqiyotni mustahkamlaydi.**

Dalia OLTUNTEPE,
“Niderlandiya — O‘zbekiston” do‘stlik jamg‘armasi raisi:

— O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiy davlatlar tashkiloti sammitidagi nutqida turkiy xalqlarning birligi va yuksalishi uchun zarur bo‘lgan maqsad hamda aniq yo‘nalishlar o‘z ifodasini topdi.

Mening nuqtayi nazarimga ko‘ra, O‘zbekiston yetakchisining nutqi turkiy xalqlarning madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan o‘zaro bog‘liqligi ta’kidlangani bilan katta taassurot qoldirdi. O‘zbekistonning rivojlanishi qo‘shni davlatlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, butun Markaziy Osiyoda umumiy taraqqiyotni mustahkamlaydi.

Madaniy-ma’rifiy tashabbuslar orqali turkiy xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirish taklifi ham juda dolzarb. Turkiy ellar folklorining ko‘p jildli majmuasini a’zo mamlakatlar tillarida tarjima qilishni rag‘batlantirish g‘oyasi istiqbolli yondashuvdir. Har bir a’zo davlatning madaniy merosi bir necha tillarda mavjud bo‘lishi muhim, bu uning butun turkiy dunyoda tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi.

O‘zbekistonning keyingi paytlarda o‘zbek tili va adabiyotini targ‘ib etish, turkiy tilli mintaqadagi muhim arboblar — jadid ziyolilariga hurmat-ehtirom ko‘rsatish borasida erishgan muvaffaqiyatlari milliy o‘zlikni mustahkamlashning ajoyib namunasidir. Ushbu madaniy loyihalarga sarmoya kiritish orqali O‘zbekiston nafaqat o‘z merosini targ‘ib qilmoqda, balki butun turkiy dunyoda aloqalarni mustahkamlaydigan yo‘lni bosib o‘tmoqda.

Baybolot ABITOV,
O‘sh davlat universiteti Sharq qo‘lyozmalari va merosi instituti rahbari, tarix fanlari doktori, professor:

— Sammit kun tartibidan turkiy dunyoni rivojlantirish, iqtisodiy integratsiya, barqaror taraqqiyotni ta’minlash, raqamli kelajak hamda xavfsizlik, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish masalalari muhokamasi o‘rin oldi.

Yetakchilar turkiy tilli davlatlar o‘rtasidagi har tomonlama munosabatlarni yanada rivojlantirish masalalarini muhokama qildilar.

Ilgari surilgan tashabbuslar va ularning hayotga tatbiq etilishi tashkilot va ikki davlatning yanada samarali rivojlanishiga xizmat qiladi.

“Dunyo” AA

Bugunning gapi

MIGRATSIYA

BANDLIKNI TA’MINLASH VA DAROMAD MANBAI YARATISHGA E’TIBOR KUCHAYDI

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Mehnat migratsiyasining hozirgi rivojini ko‘pchilik globallashuv, zamonaviy taraqqiyot imkoniyatlari va rivojlangan davlatlarda ishchi kuchiga talab yuqoriligi bilan bog‘laydi. To‘g‘ri, bu omillar asosli. Lekin e’tibordan chetda qolayotgan yana bir jihat bor. Bu keyingi paytlarda mehnat migratsiyasi masalasiga muammo emas, balki iqtisodiy chora sifatida qarash shakllangani va ommalashgani bilan bog‘liq. Boshqacha aytganda, bundan ham yuboruvchi, ham qabul qiluvchi davlatlar iqtisodiy manfaat ko‘rmoqda.





Bugun istalgan mamlakatda migratsiya masalasiga duch kelishingiz mumkin. Albatta, kimdir o‘qish, boshqasi tijorat yoki sayohat, yana birov ishlash maqsadida dunyo kezib yuribdi.

Butun dunyoda ishchi kuchi ko‘chib yurishi tabiiy jarayon. Mamlakatimizda bunday fuqarolarni chet elga tartibli va xavfsiz jo‘natish bo‘yicha ham muayyan ishlar qilinmoqda.

Bandlik va aholi daromadini oshirish — davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishi. Shu maqsadda ko‘plab iqtisodiy-ijtimoiy dasturlar amalga oshirilmoqda. Yangi-yangi loyihalar ishga tushirilyapti. Tadbirkorlik va o‘zini o‘zi band qilishga keng yo‘l ochilgan.

Bunday vaziyatda davlat qonunchilikni qayta ko‘rib chiqishi, fuqarolarini himoyalash choralarini kuchaytirishi zarur bo‘ladi. Shunday bo‘ldi ham. Xorijda o‘qish, ishlash yoki biznes uchun ketayotgan fuqarolarga yaratib berilayotgan sharoitlar oldingi yillardagidan tubdan farq qiladi. Xususan, eng avvalo, noqonuniy mehnat migratsiyasi va odam savdosiga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Shu bilan birga, tashqi mehnat migratsiyasini diversifikatsiya qilish doirasida xorijiy davlatlar bilan yangi mehnat bozorlariga chiqish va mazkur yo‘nalishdagi tartib-taomillarni soddalashtirish bo‘yicha aloqalar kuchaydi. Tashqi mehnat migratsiyasini takomillashtirish, xorijda ishlayotgan fuqarolarga har tomonlama ko‘mak berish, vatandoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ular bilan muntazam muloqotda bo‘lish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Xorijga ishlash maqsadida ketayotganlar bilan bir qatorda migratsiyadan qaytgan yurtdoshlarimiz bandligini ta’minlash, ularga doimiy daromad manbai yaratib berishga ham e’tibor kuchaydi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, keyingi yillarda 2 million 400 ming kishi o‘zini o‘zi band qilgan. Endi ular faoliyatini yanada kengaytirish, bosqichma-bosqich kichik biznesga o‘tkazish, bozor topishiga ko‘maklashish kun tartibidagi masalaga aylandi. Qolaversa, kasb-hunarga o‘qitish orqali malakali kadrlar tayyorlash, migrantlarning xorijda orttirgan tajribasini mamlakatimizda qo‘llashga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Davlatimiz rahbari joriy yil 15-oktyabrda Toshkent viloyatini rivojlantirishning hozirgi holati va kelgusidagi vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishda ham ayni yo‘nalishdagi ishlarga to‘xtaldi. Jumladan, Migratsiya agentligi faoliyati takomillashtirilib, xorijda ishlash istagidagi yurtdoshlarimizni xavfsiz va yuqori daromadli ish bilan ta’minlash bo‘yicha yangi yondashuvlar joriy etilishi, chet elda mavsumiy ishlab qaytgan va yana ketish istagidagi shaxslarga xalqaro mehnat bozorida talabgir kasb-hunarlar o‘rgatilishini ta’kidladi.

Zero, zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beruvchi kadrlarga ehtiyoj yuqoriligi bois, bu imkoniyatlar fuqarolar daromadini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Prezidentimizning joriy yil 17-oktabrdagi “Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni va “Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonlarini tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori mazkur yo‘nalishdagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishda muhim qadam bo‘ladi. Eng muhimi, mazkur hujjatlar bilan davlat mas’ul organlarining aniq vazifalari va javobgarligi belgilandi.

— Mazkur farmon migratsiya faoliyatini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishga xizmat qiladi, — deydi Migratsiya agentligi direktori o‘rinbosari Azimjon Husanov. — Bu o‘rinda birinchi galdagi vazifa ish beruvchilarni izlab topish. Ularni sifatli tanlash maqsadida Tashqi ishlar vazirligining xorijdagi vakolatxonalari, tegishli idoralarning shaxsiy javobgarligi kuchaytirildi. Bu esa ish beruvchilar mas’uliyatini oshirish va fuqarolarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilashni taqozo qiladi.

Farmonga ko‘ra, Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi Migratsiya bo‘yicha respublika komissiyasi etib qayta nomlandi va tarkibi yangilandi. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi faoliyati tugatilib, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi tashkil etildi. Shuningdek, Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg‘armasi agentlikka o‘tkazilib, uning negizida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Migratsiya jamg‘armasi tashkil etiladi.

— Migratsiya jamg‘armasi mablag‘lari, birinchi navbatda, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, qolaversa, xorijga ishlash maqsadida ketish niyatidagi, lekin yetarli mablag‘ga ega bo‘lmagan fuqarolarga ishchi vizalarni rasmiylashtirish, til va malaka sertifikatini olishiga ko‘maklashish, moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltiriladi, — deydi Migratsiya agentligi mutaxassisi Abror Olimov. — Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijiy tillarga o‘qitish va xorijda ishlash istagida bo‘lgan fuqarolarni maqsadli tayyorlash markazi faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Ushbu markazning har bir viloyatda filiali bo‘ladi. Shu bilan birga, markaz xorijlik ish beruvchi va yurtimizdagi professional ta’lim tashkilotlari o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi. Bu jarayon qanday amalga oshiriladi? Masalan, ish beruvchi o‘ziga qaysi yo‘nalish va talablarga mos keladigan nomzodlarni qidirayotgani to‘g‘risida ta’lim markaziga talabnoma yuboradi. Ana shu talabnoma asosida qisqa yoki uzoq muddatli o‘quv kurslari tashkil etiladi.

Migratsiya agentligi tashqi mehnat migratsiyasi sohasida davlat siyosatini amalga oshiruvchi, davlat organlarining ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va mazkur sohada davlat xizmatlari ko‘rsatuvchi vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organidir.

2025-yil 1-yanvardan boshlab agentlikka xususiy bandlik agentliklari faoliyatini tekshirish bilan bog‘liq nazorat tadbirlarini Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakilni xabardor qilgan holda o‘tkazishga ruxsat etiladi.

Agentlik zimmasiga u tomonidan o‘tkazilgan har qanday tekshirish natijasi bo‘yicha tuzilgan bayonnomalar, har bir tekshirilgan subyekt bo‘yicha aniqlangan qonun buzilishi holatlari soni va xususiyati haqidagi ma’lumotlarni majburiy tartibda besh kun muddatda “Xorijda ish” mehnat migratsiyasi elektron dasturiy majmuasiga joylashtirib borish majburiyati yuklanadi.

“Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonlarini tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror chet mamlakatlarda tashkillashtirilgan holda mehnat qilishning institutsional asoslarini mustahkamlash, xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish istagidagi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlarini himoya qilish, sohada sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, ushbu jarayonga xususiy sektorni yanada keng jalb qilish va ko‘rsatiladigan xizmatlarni raqamlashtirishga qaratilgan.

Unga ko‘ra, fuqarolarning xorijda vaqtincha mehnat faoliyati yuritish imkoniyatini kengaytirish va ularga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish maqsadida 2024-yil 1-noyabrdan boshlab xorijiy ish beruvchilar tomonidan taklif qilinayotgan ish o‘rinlari haqidagi barcha ma’lumotlar Migratsiya agentligining elektron platformasi, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda ochiq e’lon qilib boriladi.

Agentlikning elektron platformasida fuqarolarga o‘zining rezyumesini shakllantirish va joylashtirish hamda e’lon qilingan ish o‘rinlari bo‘yicha tanlovlarda erkin ishtirok etish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, hududiy filiallar tomonidan fuqarolarning xorijda ishga joylashish bilan bog‘liq, jumladan, “ishchi viza”ga oid hujjatlarini rasmiylashtirish bo‘yicha bepul konsalting xizmatlari ko‘rsatish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi.

Vaqtincha mehnat faoliyati yuritish uchun rivojlangan mamlakatlarga chiqib ketayotgan fuqarolarga tijorat banklari tomonidan Migratsiya jamg‘armasi mablag‘i hisobidan 10 million so‘mgacha miqdorda Markaziy bankning asosiy stavkasidan to‘rt foiz bandga yuqori stavkada ikki yil muddatga mikrokreditlar ajratiladi.

Qaror bilan 2024-2026-yillarda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish istagini bildirgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash dasturi tasdiqlandi.

Xorijga ishlash uchun ketmoqchi bo‘lgan fuqarolarni kasb-hunar va chet tillarga o‘qitish tizimini zamon talablariga moslashtirish, shuningdek, mazkur yo‘nalishda xalqaro tan olingan dastur va malaka sertifikatlarini joriy qilish maqsadida 2024-yil 1-dekabrdan boshlab agentlik tomonidan ta’lim tashkilotlarida xorijga ishga ketmoqchi bo‘lgan fuqarolarni kasb-hunar va chet tillarga o‘qitish bo‘yicha buyurtmalar joylashtirish tartibi joriy etiladi.

Bunda agentlik buyurtmalari asosida kasbiy ta’lim tashkilotlarida xorijga ishga ketmoqchi bo‘lgan fuqarolar uchun davlat granti asosida alohida qabul parametrlari belgilanadi.

Xususan, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan xorijga ishga ketmoqchi bo‘lgan fuqarolarni o‘qitish uchun Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi hisobidan grantlar ajratiladi.

Ta’lim kreditini moliyalashtirish jamg‘armasi hisobidan xalqaro tan olingan ta’lim dasturlari bo‘yicha kasbga o‘qish uchun ta’lim kreditlari ajratish tartibi joriy qilinadi.

Shu bilan birga, agentlikning elektron platformasida kasbiy ta’lim muassasalari va kasbiy ko‘nikmalar markazlarida faoliyat yuritayotgan chet tili fani o‘qituvchilari reytingi tuziladi.





Bunda ingliz, koreys, nemis va yapon tillari bo‘yicha kamida B1 yoki unga tenglashtirilgan darajadagi xalqaro sertifikat olgan bitiruvchilari soni eng ko‘p bo‘lgan 50 o‘qituvchiga jamg‘arma hisobidan 50 million so‘mdan subsidiya to‘lanadi.

Xorijda ishga joylashish xizmatlari bozorida takliflarni ko‘paytirish hamda ushbu yo‘nalishda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida 2024-yil 1-dekabrdan boshlab xususiy bandlik agentliklari tomonidan litsenziya olish uchun zaxira qilinadigan mablag‘lar miqdori bazaviy hisoblash miqdorining sakkiz ming besh yuz barobaridan to‘rt ming barobarigacha tushiriladi.

Agentlik tomonidan xorijiy ish beruvchilar va rekruting tashkilotlaridan fuqarolarni xorijda ishga joylashtirish bo‘yicha olingan takliflarni xususiy bandlik agentliklari o‘rtasida ochiq tanlov yo‘li bilan taqsimlash tartibi joriy etiladi.

2026-yil 1-yanvarga qadar agentlikning fuqarolarni tashkillashtirilgan holda tanlash, xorijga ishga yuborish va ishga joylashtirish bilan bog‘liq funksiyalari bosqichma-bosqich xususiy bandlik agentliklariga o‘tkaziladi.

Ushbu hujjatlar xorijda vaqtincha mehnat faoliyati yuritish jarayoni samaradorligini oshirish, fuqarolarga xorijda ishlash imkoniyatini kengaytirish va albatta, davlat ularning huquqlarini himoya qilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

8-dekabr — O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni

Davlatimiz rahbarining joriy yil 17-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishida Bosh qonunimizda belgilangan xalq hokimiyatchiligi, inson qadri, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik kabi ezgu g‘oyalar atrofida fuqarolarni jipslashtirish, “Konstitutsiya — erkin va farovon hayot garovi!” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy hamda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni samarali tashkil etish maqsadida qator chora-tadbirlar belgilandi.



YOSHLARNING HAYOT QOIDASIGA AYLANAYOTGAN ASOSIY QONUN

Baxtiyor ALIBOYEV,
Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti



Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz 2023-yil 30-aprelda o‘tkazilgan umumxalq referendumida qabul qilinib, 1-may kuni Konstitutsiyaviy qonunga muvofiq tasdiqlandi. Bosh qonunimizdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi hamda 65 foiz yangilandi.

Davlatimizning ijtimoiylik tamoyili har bir fuqaroning munosib turmush kechirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, mavjud resurslarning ijtimoiy adolat asosida taqsimlanishi, jamiyatda turli tabaqalanishlarning oldini olish, aholining kam ta’minlangan qatlami uchun sifatli ta’lim va tibbiyot kafolati, samarali ijtimoiy himoyani amalga oshirish, imkoniyati cheklangan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash, adolatli mehnat qonunchiligini ta’minlash bilan izohlanadi.

Bosh qonunimizda belgilangan qoidalar asosida yoshlar siyosati, ta’lim-tarbiya, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarini rivojlantirish bo‘yicha yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Eng asosiysi, uning har bir bandi va moddasi jamiyatimiz, xususan, yoshlarning hayot qoidasiga aylanishi uchun turli targ‘ibot va tashviqotlar o‘tkazilishi, o‘quv qo‘llanma, darslik hamda risolalar tayyorlanishi zarur. Bu esa, o‘z navbatida, yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, mahalla, ta’lim muassasasi, davlat tashkilotlari va korxonalarda o‘rnini topishiga xizmat qiladi.

Hozirgi globallashuv jarayonida ilm-fan va ta’limning ahamiyati beqiyos. Yoshlar ilmli bo‘lishi, zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirishi uchun zarur resurslarni yo‘naltirish, maktabgacha ta’lim tashkilotidan zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarigacha bo‘lgan bosqichlarda sifatli mutaxassis bo‘lib shakllanishi uchun xizmat qiluvchi mantiqiy bog‘liqlikka ega ta’lim konsepsiyalarini ishlab chiqish orqali jamiyatimiz taraqqiyoti va farovonligiga erishish mumkin. Ushbu jarayonni amalga oshirish uchun Konstitutsiyamizda ta’lim olish huquqi va imkoniyatlari kengaytirilgani muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim va ilm-fanga oid qoidalar deyarli ikki barobar ko‘paydi. Jumladan, 44-moddada bolalarni majburiy mehnatga jalb etish, ta’lim olishiga to‘sqinlik qilish qonun bilan taqiqlandi. Shuningdek, 50-moddada har bir fuqaroning ta’lim olish huquqi mustahkamlanishi bilan birga uzluksiz o‘qitish tizimi, ta’limning turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlarining davlat tomonidan rivojlantirilishi belgilab qo‘yildi. Ushbu moddada davlat maktabgacha ta’lim-tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi, umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olish bepulligi, umumiy o‘rta ta’lim majburiyligi hamda maktabgacha ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratida ekani qayd etilgan. Maktablarda imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta’lim-tarbiya ta’minlanishi alohida e’tiborga loyiq.

Konstitutsiyamizga hamohang ravishda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham aholi talablari va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish g‘oyasi aks etgan. Jumladan, bolalarni maktabgacha ta’lim va tayyorlov guruhlariga to‘liq qamrab olish, davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini 100 foiz kompyuter sinfi bilan ta’minlash orqali tarbiyalanuvchilarda boshlang‘ich kompyuter savodxonligi ko‘nikmalarini shakllantirish kabi masalalar ana shu maqsadlarga xizmat qiladi.

Bosh qonunimizda oliy ta’lim tizimini rivojlantirishga ham keng e’tibor qaratilgan. Jumladan, 51-moddada fuqarolar davlat ta’lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma’lumot olish, oliy ta’lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o‘zini o‘zi boshqarish, tadqiqotlar o‘tkazish va o‘qitish erkinligi huquqiga egaligi ko‘rsatilgan.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasining 7-, 8-maqsadlarida yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish, umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini oliy ma’lumotli pedagog kadrlar bilan to‘liq ta’minlash, yetakchi 500 talikka kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo‘shma ta’lim dasturi asosida ikki diplomli tizimni joriy etish, 10 ta oliy ta’lim muassasasini dunyoning eng nufuzli 1000 ta oliy ta’lim tashkiloti reytingiga kiritishga erishish ko‘zda tutilgan.

Davlat oliy ta’lim muassasalariga 2024/2025-o‘quv yilida 1 million 167 mingdan ortiq yigit-qiz talabalikka qabul qilingan. Oliy ta’lim sohasida sog‘lom raqobat muhiti shakllantirilishi, oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi oshirilishi natijasida hozir mamlakatdagi oliy ta’lim muassasalari soni 210 tadan oshdi. Yoshlarning oliy ta’lim bilan qamrovi 43 foizga yetkazildi.

Konstitutsiyaning 53-moddasida har bir fuqaroga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanishi, intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinishi, davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g‘amxo‘rlik qilishi bayon qilingan.

Ushbu moddaning amaldagi isboti o‘laroq, davlat tomonidan ilm, ta’lim va innovatsiyaga e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, o‘tgan to‘rt yilda 1727 ta amaliy, innovatsion, fundamental va startap loyihaga 2,2 trillion so‘m yo‘naltirilgan. Tadqiqot, tajriba-konstruktorlik uchun xarajatlar 2 barobar oshirildi.

Bosh qonunning ilm-fan va ta’limga oid normalari sohalarning jadal rivojlanishi uchun poydevor vazifasini o‘tamoqda. Ilm-fan va ta’lim sohalari rivoji uchun eng so‘nggi raqamli texnologiyalar hamda sun’iy intellektning qo‘llanishi amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati va samaradorligi garovidir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya shaklan va mazmunan mukammal bo‘lib, unda asosiy e’tibor inson omili, fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni va maqomini mustahkamlash, oila institutini rivojlantirish, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, bolalar mehnatiga yo‘l qo‘ymaslikni nazarda tutadi. Bundan tashqari, nogironlar, keksa avlod vakillarining huquqlarini ishonchli himoya qilish, ekologik muammolarni hal etish, shuningdek, sifatli va malakali tibbiy xizmatni tashkil etish, ta’limni rivojlantirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, xususiy mulkni muhofaza qilish va korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan.

“KONSTITUTSIYAMIZGA HAMOHANG RAVISHDA “O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASIDA HAM AHOLI TALABLARI VA XALQARO STANDARTLARGA TO‘LIQ JAVOB BERADIGAN TA’LIM, TIBBIYOT VA IJTIMOIY HIMOYA TIZIMINI TASHKIL QILISH G‘OYASI AKS ETGAN.

O‘ZBEKISTON 2030

YANGI O‘ZBEKISTON
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz



TRANSFORMATSIYA

ENERGIYA TA’MINOTI BARQARORLIGIDA UNING AHAMIYATI YUQORI

Barqaror energiya odamlarning yaxshi yashashi uchun eng zarur manbalardan. Shu bois, keyingi yillarda butun dunyoda, jumladan, O‘zbekistonda ham energetika tizimini modernizatsiya qilish, ta’minotni yaxshilash hamda sohada tejamkorlikni oshirishga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. Buning uchun zarur shart-sharoit yaratilib, huquqiy asoslar mustahkamlanyapti. Hamkorlikdagi loyihalarga qo‘l urilmoqda. Binobarin, elektr energiyasiga talab yil sayin emas, kun sayin ortib bormoqda. Mamlakatimiz energetika tizimida 2030-yilga borib, umumiy quvvati 25 ming 57 megavatt bo‘lgan 47 ta elektr stansiyasi (shundan 35 tasi quyosh va shamol, 12 tasi issiqlik elektr stansiyasi) ishga tushirilishi rejalashtirilgani ana shunday sa’y-harakatlar namunasidir.



Dilshod ULUG‘MURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

So‘nggi paytlarda aholining energiyaga mavsumiy ehtiyoji keskin oshib borayotir. Bu barcha elektr tarmoqlarini, ya’ni generatsiyadan tortib, elektr energiyasi transportirovkasi hamda taqsimlash jarayonini ham yaxshilashni taqozo etadi. Energetika tizimida samaradorlik ta’minlanmay, barqaror energiya ta’minotiga erishib bo‘lmaydi. Qolaversa, keskin iqlim o‘zgarishi, anomal issiq va sovuq tufayli kuzatilayotgan holatlar energiya ta’minotidagi turli kamchiliklarni yuzaga chiqarmoqda.

Tahlillarga ko‘ra, so‘nggi yetti yilda yangi qurilgan elektr uzatish tarmoqlari hajmi 1991-2016-yillar oralig‘idagiga nisbatan 8,5 barobar ko‘p. Aniqrog‘i, 2017–2023-yillarda respublikamiz bo‘ylab 79 ming 675 kilometr uzunlikdagi elektr uzatish tarmoqlari yangilangan. 1991–2016-yillarda esa bor-yo‘g‘i 9300 kilometrlik elektr uzatish tarmoqlari modernizatsiya qilingan, xolos.

— So‘nggi 7-8 yilda magistral elektr tarmoqlari va podstansiyalarni rivojlantirish bo‘yicha ulkan loyihalar amalga oshirildi, — deydi “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi matbuot kotibi Ulug‘bek Urunov. — Misol uchun, 2017-yildan to shu kunga qadar yuqori kuchlanishli podstansiyalarning o‘tkazuvchanlik quvvati 7000 megavolt amperdan ziyodroq ko‘rsatkichga oshirildi. Taqqoslash uchun: 2005-yildan 2017-yilgacha bu ko‘rsatkich 10 barobar kam (700 megavolt amper atrofida) bo‘lgan. Yuqori kuchlanishli podstansiyalar soni esa 2017-yilga qadar 75 ta bo‘lgan bo‘lsa, hozir ularning soni 90 taga yetgan. Oxirgi yillarda qurilayotgan zamonaviy podstansiyalar raqamli texnologiyalar asosida ishlaydigan dastur, qurilma va jihozlar bilan boyitilib, ularga “raqamli podstansiya” maqomi berilmoqda. Bu mamlakatimizda barqaror energetika masalasi doimiy e’tiborda ekanidan, tizimni yanada yaxshilash yo‘lida aniq maqsadli loyiha va dasturlar ijrosi izchil ta’minlanayotganidan dalolat beradi.

Bu yaqinda davlatimiz rahbari boshchiligida elektr energetikasi sohasini transformatsiya qilish, hududlardagi elektr tarmoqlari boshqaruviga xususiy operatorlarni jalb qilish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishda ham alohida ta’kidlandi. Prezidentimiz oxirgi yillarda elektr energiyasi ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash jarayonlari alohida kompaniyalarga ajratilib, investitsiya uchun imkoniyatlar yaratilganini qayd etdi.

To‘rt tayanch tashkilot — “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari”, “Hududiy elektr tarmoqlari”, “Issiqlik elektr stansiyalari” hamda “O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyatlari xalqaro kredit reytingi olishga erishgani aytilishi barobarida endigi vazifa transformatsiya orqali raqobatli kompaniyalarga aylanish ekani qayd etildi.

Rivojlanish, hayot bir joyda to‘xtab turmaydi. Yangiliklar bisyor. Bu esa har bir jamoadan zamonga mos ishlashni talab etadi. Shundan kelib chiqib, “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan joriy yil oxirigacha 23 ta investitsiya loyihasi doirasida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 430,9 million dollar o‘zlashtirish rejalashtirilgan bo‘lsa, shuning 161 million dollari davlat kafolati ostidagi chet el mablag‘i, 203,4 million dollari boshqa xorijiy investitsiyalar, 62,2 million dollari o‘z mablag‘lari hamda 4,3 million dollari tijorat banklari kreditlaridir. Ushbu mablag‘larning asosiy qismi loyihalarga yo‘naltirilgan. Yil yakuniga qadar 10 ta investitsiya loyihasi ishga tushiriladi. Buning natijasida 595 kilometr uzunlikdagi 220-500 kilovoltli havo elektr uzatish tarmoqlari hamda 1877 megavatt quvvatga ega 4 ta yangi podstansiya ishga tushiriladi, 4 ta podstansiyani modernizatsiya qilish hisobiga esa ularning quvvati 909 megavolt amperga oshiriladi.

Bu boradagi ishlar kelgusi yilda ham davom ettiriladi. Umumiy qiymati 259,2 million dollarlik loyihalar hisobiga 486,9 kilometr uzunlikdagi 220-500 kilovoltli elektr uzatish tarmoqlari va 2352 megavolt amper kuchlanishli 4 ta yangi podstansiya quriladi. 2 ta podstansiyaning quvvati 200 megavolt amperga oshiriladi. Bundan tashqari, 2025-yil investitsiya dasturiga umumiy qiymati 387,5 million dollari bo‘lgan 5 ta istiqbolli loyiha ham kiritilgan.

Elektr energiyasiga ortib borayotgan talabni qoplash, aholi, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini elektr energiyasi bilan barqaror ta’minlash samaradorlik hamda transformatsiya jarayoni bilan bevosita bog‘liq. Shu maqsadda joriy yilda asosiy faoliyatga oid bo‘lmagan shu’ba korxonalarini optimallashtirish hisobiga tizim tashkilotlari soni 30 tadan 19 taga qisqardi. Natijada 29,3 milliard so‘mlik xarajat iqtisod qilindi. Jamiyat tarkibidan elektr energiyasini markazlashgan holda xarid qilish va sotish funksiyasi yangi tashkil etilgan “O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyatiga o‘tkazildi.

Xaridlar jarayoni shaffofligi ta’minlandi. Barcha xaridlar korrupsiyaviy risklarni minimallashtirish va inson omilini qisqartirish maqsadida elektron savdo tizimlari orqali amalga oshirilmoqda. Shuningdek, xaridlarni raqamlashtirish bo‘yicha maxsus dasturiy ta’minot tizimi ishlab chiqildi.

Yangicha yondashuvlar





Toshkent davlat texnika universiteti olimlari bilan hamkorlikda magistral elektr tarmoqlari orqali elektr energiyasini uzatishdagi texnologik sarfni hisoblash dasturi tayyorlandi. Ishlab chiqarishda xizmat qilib kelayotgan muhandislar oliy o‘quv muassasasida talaba va o‘qituvchilar uchun “mahorat darslari” o‘tib bermoqda. Kelgusi yildan ekologiya, ijtimoiy siyosat va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyili joriy etiladi.

Keling, bu tamoyillar nimalarni anglatadi, shu masalalarni birma-bir ko‘rib chiqaylik. Ekologiya tamoyili kompaniyaning atrof-muhitga qanchalik qayg‘urishini hamda ekologiyaga yetkazilayotgan zarar miqdorini kamaytirishga qaratilgan harakatlarni belgilaydi. Ijtimoiy siyosat tamoyili esa kompaniya xodimlari, yetkazib beruvchilar, mijozlar va iste’molchilarga munosabatni ko‘rsatadi. Mahalliy va xalqaro standartlarga javob berish uchun korxonalar mehnat sharoitini yaxshilash ustida ishlashi, bu borada monitoring yuritish va monitoring natijalariga ko‘ra tahlil qilish, shuningdek, gender muvozanatni kuzatishi yoki ijtimoiy loyihalarga sarmoya kiritishi lozim.

Korporativ boshqaruv tamoyili kompaniya boshqaruvi sifatiga ta’sir qiladi. Hisobotlar shaffofligi, boshqaruvga to‘lanadigan maosh miqdori, boshqaruvdagi sog‘lom muhit, aksiyadorlar bilan munosabatlar, korrupsiyaga qarshi choralar shular jumlasidan.

Shuningdek, xorijiy audit kompaniyalarini jalb qilgan holda korxonalarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimlarining samaradorligini o‘rganish bo‘yicha xaridlar jarayoni forenzik audit, ya’ni korporativ firibgarlik, xodimlarning noto‘g‘ri xatti-harakati va kompaniyadagi korrupsiyani aniqlashga qaratilgan xizmatlar majmuasi tahliliy o‘rganishlardan o‘tkaziladi. Shu bilan birga, xalqaro konsultantlar ishtirokida 2030-yilgacha raqamlashtirish strategiyasi ishlab chiqiladi.

Yirik loyihalardan hisoblanadigan dispetcherlik nazorati va ma’lumotlarni yig‘ish bo‘yicha yangi texnik-dasturiy kompleks (SCADA), elektr energiyasini boshqarish tizimi (EMS) hamda resurslarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi (ERP)ni joriy etish bo‘yicha ham ishlar davom ettirilmoqda. Mazkur loyihalar 2025-yil yakuniga qadar to‘liq joriy etilishi rejalashtirilgan.

“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatining Transformatsiyani amalga oshirish bo‘yicha loyiha ofisi boshlig‘i Bahrom Mavlonovning qayd etishicha, transformatsiya jarayonlari kam ishchi kuchi va iqtisodiy resurslar bilan yuqori samaradorlikka erishishning muhim omilidir.

— Transformatsiya ishlari shu talablardan kelib chiqib, davom ettirilmoqda, — deydi Bahrom Mavlonov. — Bu jarayon qanday tartibda amalga oshiriladi va qaysi yo‘nalishlar uchun muhim? Transformatsiya iqtisodiy va inson resurslaridan oqilona foydalanishni tashkil etish, tizimga raqamli texnologiyalar hamda dasturiy ta’minotlarni joriy qilishni yanada jadallashtiradi. Boshqaruv va texnologik jarayonlarda inson omilini qisqartirib, adolatli tizimlarni yaratish, korrupsiyaning oldini olish, ishlab chiqarishda tannarxni pasaytirish, operatsion samaradorlikni oshirish, elektr energetika tizimi ishonchliligi va xavfsizligini ta’minlash kabi muhim ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Qisqasi, transformatsiya jarayoni iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishda muhim bosqich. Shu sababli ushbu yo‘nalishdagi chora-tadbirlar jamiyat faoliyatini zamon talablari darajasida tashkil etish, xalqaro bozorga chiqish va qator investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirishda keng imkoniyat yaratadi.

Prezidentimiz huzurida o‘tkazilgan yig‘ilishda taqsimlash tarmoqlarini xususiy sheriklik asosida investorlarga berib, ularni modernizatsiya qilishga 4 milliard dollar investitsiya jalb qilish mumkinligi aytildi. Shu maqsadda 2025-yilda Samarqand, Jizzax va Sirdaryodagi tarmoqlar boshqaruviga xususiy operatorlarni jalb etish rejalashtirilmoqda.

— Ko‘plab xorijiy mamlakatlarda energiya resurslari ta’minoti, xususan, elektr energiyasi ham bir nechta operatorlarning o‘zaro raqobati doirasidagi takliflar orqali amalga oshiriladi, — deydi Ulug‘bek Urunov. — Bu jarayon mamlakatimiz iste’molchilari uchun hozircha notanish tushuncha. Buni mobil aloqa operatorlarining jozibador takliflari va xizmat sifatini oshirish uchun marketingga asoslangan ish uslubiga taqqoslash mumkin. Buning afzalliklari Xitoy, Gruziya tarmoq operatorlash faoliyatida uchraydi. Tarmoqlar boshqaruvi xususiy operatorlarga o‘tkazilganda iste’molchilar o‘zi uchun qulay va hamyonbop tarif turlari bo‘yicha energiya resurslari ta’minotchilari bilan shartnoma imzolaydi. Eng muhimi, xizmat sifati yuqori bo‘lishini talab qiladi. Aks holda, shartnoma shartlarida belgilangan jarimalar ishga tushadi va xizmat sifatini zarur darajaga yetkazmagan operatorlar raqobat tamoyili asosida boshqa operatorga foydasini boy berishi, ya’ni iste’molchi boshqa operatorni tanlab, u bilan shartnoma tuzishi mumkin.

“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati energetika tizimi tashkilotlari qatorida faoliyati uchun zamonaviy va innovatsion texnologiyalarni joriy etish va qo‘llash, xarajatlarini qisqartirish, daromad va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, xalqaro bozorlarga chiqish, shuningdek, jamiyatning istiqboldagi rivoji uchun sohaga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda transformatsiya qilish uchun barcha sharoitlarni yaratib bormoqda.

Agrar tarmoq



XARAJATI KAM, FOYDASI KO‘P EKINNING SERHOSIL NAVI TOSHKENT VILOYATINING BEKOBOD TUMANIDA YETISHTIRILYAPTI



Bugungi kunda ovqatni paxta yog‘ida qiladiganlar anchagina kamayib ketgan. Zero, uy bekalari ko‘proq qulaylikni, vaqtdan yutishni istaydi. Avvallari onalarimiz 10-15 kunga yetadigan paxta yog‘ini o‘choqda, katta qozonda obdan qizdirib olib ishlatgan. Kimlardir zig‘ir, soya yog‘ini xushlaydi. Biroq ayni paytda aholining katta qismi kungaboqar yog‘idan foydalanyapti. Salgina qizdirilsa bo‘ldi-da, hidi, tutuni yo‘q. Shu bois, kungaboqar yog‘iga ehtiyojimiz ortsa ortadiki, kamaymaydi.



Ilg‘or fermerlarning aytishicha, respublikamiz sharoitida kungaboqar asosiy ekin sifatida erta bahorda, takroriy ekin sifatida iyul oyining birinchi o‘n kunligida ekiladi. 75-80 kunda pishadigan bu ekin chetdan (25 foiz o‘zidan) changlangani bois, uning urug‘chiligini yo‘lga qo‘yish qiyin masala. Biroq xarajati kam, hosili mo‘l kungaboqar paxtaga nisbatan kamida ikki hissa manfaatli. Ertakisidan gektaridan kamida 2-3 tonna hosil olinadi, chiqindi chiqmaydi. Chunonchi, savatchalari chorva uchun yaxshi ozuqa bo‘lsa, poyasini o‘tin o‘rnida ishlatish mumkin. Agrotexnikasi ham qulay, bitta yengil chopiqdan so‘ng odam bo‘yi o‘sib, barglari bilan o‘zini yopib oladi. Shu bois, uning soyasida begona o‘tlar rivojlana olmaydi. Arzimagan suv bilan pishishidan tashqari o‘g‘itni ham kam talab qiladi. Eng muhimi, bozori chaqqon. Kimga, qayerga sotaman deb o‘ylanmaysiz. Hatto yurtimizga chetdan “Yeringizda yetishtirib bersangiz bas, hamma xarajatlar o‘zimizdan, xizmatingizga haq to‘laymiz”, deydigan investorlar kelyapti. “Yo‘g‘-e” deysizmi, unda Toshkent viloyatining Bekobod tumaniga boring. Tuman hokimligi mutasaddilarining aytishicha, hududdagi 650 gektar yerga rossiyalik investorlar bilan hamkorlikda sifatli urug‘ va o‘simlik moyi ishlab chiqarishga mo‘ljallangan kungaboqar tajriba tariqasida ekildi. O‘rtacha hisobda gektaridan 3,5-4 tonnagacha hosil olish rejalashtirilgan bu kungaboqar navining mahalliy navlardan farqi shundaki, undan odatdagidan ko‘proq yog‘ olish mumkin. Shuningdek, hosildorligi ham yuqori, iqlim sharoitiga moslashuvchan, urug‘lari unuvchan. Dehqonobod massividagi “Boybo‘ta” fermer xo‘jaligi ham 13 gektar yerda ilk bor kungaboqar yetishtirdi. Fermer xo‘jaligi rahbari Nilufar Pirmatova bu haqda batafsil gapirib berdi.

— Bekobodda kungaboqar ekilganini hech ko‘rmaganmiz. Chunki o‘zimizning mahalliy navlar bug‘doydan keyingi yerlarimizda pishmaydi, — deydi fermer. — Rossiyaliklar esa o‘zlarining yangi navidan bu yerda ham ikki marta hosil olishdan umid qilib kelishibdi. Hokimlik vakillari bilan muzokaralar qilib, bir qarorga kelingach, tajriba tariqasida ekdik. Mehnati paxtanikiday og‘ir emas ekan. Paxtani mart oyida ekib, oktyabrda terib olamiz, 9 oyda pishadi. Kungaboqarni ikkinchi hosilga avgustning boshida ekkan bo‘lsak ham pishib yetildi. Hatto oyning o‘rtasida ekkanlarniki ham pishib ulgurdi. Ertakisi 80 kunda, kuzgisi 90 kunda pishadi. Gektariga taxminan 7 kilodan urug‘ sarflandi.

Uch marta yengil sug‘orildi. Urug‘lik bo‘lgani uchun 250 kilodan o‘g‘it berdik. Aslida, bundan ham kam sarflanadi. Paxtani esa 4-5 marta qondirib sug‘orish kerak. Kamida 1 tonna o‘g‘it solinadi. O‘rgimchakkana, ko‘sak qurti, shiraga qarshi zaharli dorilar sepilmasa, yoppasiga kasallanadi. Bu yil 5 martagacha shunday dorilarni sepdik. Kungaboqarga esa bir marta dori sepildi. Gullagan payti bir gektariga 5 qutidan asalari qo‘yib changlatdik. Nasib qilsa, hosildan qimmatbaho urug‘ olinadi. Rossiyaning nam iqlimiga moslashgan bu nav qorda ham dalada turaveradi. Poyasi mahalliy kungaboqarnikidek emas, yumshoq. Hosilni o‘rish chog‘i kombayn poyasini yanchib, yerga sochib ketadi. Bir marta yomg‘ir yog‘sa, yerni haydasangiz, tayyor biogumus-da. Shuning uchun ham mutasaddilar astoydil harakat qilyapti. Xizmatimizga yaxshigina haq to‘lashmoqchi. Zora, kungaboqar urug‘chiligi bo‘yicha yetakchi bo‘lib ketsak. Tajriba natijalariga qarab, bu yerda ham yog‘-moy zavodlari qurish mo‘ljallanyapti. Agar tumanimizda yog‘ zavodi qurilib qolsa bormi, kamida 2 ming kishi ish bilan ta’minlanadi.

Nilufar opa urug‘lik kungaboqarni ekish qoidalaridan ajablanganini aytdi. Toshkentdan bir tadqiqotchi opa kelib, shu bo‘yicha dissertatsiya yozayotgani haqida gapirdi. Fermerdan o‘sha ayol bilan bizni bog‘lashini iltimos qildik.

— Moyli ekinlarning urug‘i va mevasi tarkibida 20-60 foiz moy bo‘lib, oziq-ovqatda, konserva ishlab chiqarishda, qandolat va non mahsulotlari tayyorlashda foydalaniladi. Bundan tashqari, o‘simlik moyi margarin, sovun, lak-bo‘yoq, alif, linoleum ishlab chiqarishda, tabobatda, parfyumeriyada, teriga ishlov berishda qo‘llaniladi, — dedi Toshkent kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi Muhabbat Amonova. — Moy ishlab chiqarishdan qolgan kunjara va shrot chorva mollariga yuqori to‘yimli ozuqa hisoblanadi. Urug‘larni moy olish uchun qayta ishlashda 33-35 foiz yuqori sifatli kunjara olinadi. Kunjara almashtirib bo‘lmaydigan aminokislotalarga boy.

So‘nggi yillarda yaratilgan kungaboqar navlarining moyida 75-80 foiz olein va 12-17 foiz linol kislotalari saqlanadi. Bunday moylar sifatiga ko‘ra, zaytun yog‘iga yaqin turadi. Kungaboqar yog‘ida A, D, E, K vitaminlari, fosfatidlar bor.

Tadqiqotchining aytishicha, “Boybo‘ta” fermer xo‘jaligida, asosan, “M 32” onalik, “O 21” otalik urug‘lari ekildi. Nasib qilsa, ulardan keyingi yilga ekish uchun elita urug‘ olinadi. O‘simlikni changlatish uchun asalaridan foydalaniladi. Chunki asalari bo‘lmasa, savatchadagi pistalarning 40 foizi puch bo‘lib qoladi. Bu kungaboqar gullab olsa bas, salqinda ham hosilga to‘laveradi, sovuq ta’sir qilmaydi.

Muhabbat Amonovaning so‘zlariga ko‘ra, kungaboqarning ang‘iz qoldiqlari, maydalangan savatchalari chorva mollari uchun qo‘shimcha oziq, urug‘larining po‘chog‘i geksoza va pentoza shakari ishlab chiqarishda qimmatli xomashyo. Poyalarini kuydirib, kulidan ishqor olinadi. Zero, uning kuli qimmatli o‘g‘itdir. Shuningdek, kungaboqar asal beruvchi o‘simlik. O‘zbekistonning lalmikorligida kungaboqar silos va yashil ozuqa uchun ekiladi. U sho‘rga chidamli boshqa o‘simliklar uchun agrotexnikaviy ahamiyatga ega. Urug‘ po‘choqlaridan olingan geksoza shakaridan etil spirti, ozuqa achitqilari, pentoza shakaridan sun’iy tola, plastmassa, sinmaydigan shisha ishlab chiqarishda foydalaniladigan furfurol olinadi.

Kungaboqar kam xarajatli, ammo daromadli ekin ekanini, to‘g‘risi, maqolani yozish jarayonida tushunib yetdik. Umid bilan aytishimiz mumkinki, rossiyalik investorlar bilan kungaboqarning yangi navini yetishtirish borasidagi hamkorlik nafaqat Bekobod tumani, balki respublikamiz iqtisodi rivojiga ham sezilarli hissa qo‘shadi.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Ekoturizm tabiatga ziyonni kamaytiribgina qolmay, yangi sarmoyalarni jalb qilish, ish o‘rinlari yaratish va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash orqali hudud iqtisodiyotini rivojlantirishga yordam beradi.



EKOLOGIK SAYYOHLIK VAQTINCHALIK TREND EMAS

U TURIZM SANOATINING RIVOJLANISHI UCHUN POYDEVOR BO‘LA OLADI

Sayyora SAFOYEVA,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor



Jahon sayyohlik sanoatida eng ko‘p muhokama qilinadigan mavzulardan biri ekologik turizmdir. Tabiat go‘zalliklaridan bahramand bo‘lish bilan birga uni kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash maqsadida ekologik xavfsiz yo‘nalishlarni tanlayotgan sayyohlar soni tobora ortib bormoqda. Bu yo‘nalish O‘zbekiston uchun ham ahamiyatli. Hali Fransiya yoki Ispaniyadagidek sayyohlar oqimi ko‘p emasligini inobatga olsak, mamlakatimiz noyob madaniy va tabiiy merosni asrashga xizmat qiladigan ekologik barqaror turizm modelini shakllantirish uchun betakror imkoniyatga ega.

Mamlakatimizda ekologik vaziyatni yaxshilash, transchegaraviy garmsel shamoli va chang-qum bo‘ronining atrof-muhitga zararli ta’siri oldini olish maqsadida qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, joriy yil 21-oktabr kuni “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda bu boradagi masalalar kengroq tahlil qilindi, kelgusida bajarilishi lozim bo‘lgan ishlar belgilab olindi.

O‘zbekiston tabiat muhofazasi masalasida o‘zini har tomonlama mas’uliyatli mamlakat sifatida namoyish etib kelmoqda. Avvalo, bu yo‘nalishda Prezidentimizning 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, 2030-yilgacha issiqxona gazi tashlanmasini 35 foiz qisqartirish, sanoatda energiya samaradorligini 20 foiz oshirish, iqtisodiyotning barcha tarmog‘ida suvdan foydalanish unumdorligini ta’minlash, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 gigavattga yetkazish va ularning umumiy elektr energiyasidagi ulushini 30 foizdan ko‘paytirish, qattiq maishiy chiqindilarning qayta ishlanishini 60 foizga yetkazish kabi maqsadlar belgilangan.

Izchil sa’y-harakatlar natijasi o‘laroq mamlakatda ekoinnovatsion mehmonxonalar tajribasi ommalashmoqda. Bu kabi o‘zgarishlar ekosayyohlarni mamlakatimizga ko‘proq jalb etmoqda.

Sayyohlar oqimini shakllantirish bosqichida

Ekologik turizm nafaqat tabiat muhofazasi, balki mahalliy hamjamiyatni qo‘llab-quvvatlashni ham nazarda tutadi. Bu esa turizmni muhim ijtimoiy-iqtisodiy kuchga aylantiradi. Madaniy yodgorliklar, tabiiy qo‘riqxonalar va noyob landshaftlarga boy bo‘lgan O‘zbekiston uchun ekologik turizm barqaror taraqqiyotning asosiy omillaridan biridir. Turizm sohasini zamonaviy ekologik standartlar asosida yo‘lga qo‘yish ayrim mamlakatlarda ommaviy turizm ta’sirida kuzatilayotgan salbiy holatlarning oldini olish imkonini beradi.

O‘ta ko‘p sayyohlar oqimi ekologiyaga jiddiy talafot yetkazayotgan Yevropaning mashhur yo‘nalishlaridan farqli ravishda O‘zbekiston sayyohlar oqimini shakllantirish bosqichida. Bu atrof-muhit va madaniy an’analarni saqlab qolgan holda infratuzilmani barpo etish mumkin degani. Mamlakatimiz mazkur yo‘nalishda dastlabki qadamlarni qo‘ymoqda. Milliy bog‘lar tashkil etish, qishloq turizmini rivojlantirish va barqaror turizmning ahamiyati borasida aholi xabardorligini oshirish kabi harakatlar shular jumlasidan.

Qoraqalpog‘istonning Bo‘zatov tumanida joylashgan “Orolbo‘yi” milliy tabiat bog‘i O‘zbekiston ekoturizmining yorqin namunasidir. Maydoni 3165,95 gektar bo‘lgan bog‘ uch qismdan iborat: qo‘riqxona, rekreatsiya zonasi va xo‘jalik hududi. Bunday bo‘linish turizmni qat’iy ekologik standartlar asosida rivojlantirishga yordam beradi.

“Orolbo‘yi” bog‘i qo‘riqxonasida mahalliy o‘simlik va hayvonot olami inson ta’siridan himoya qilinadi. Rekreatsiya zonasi sayyohlar uchun ochiq bo‘lib, piyoda sayr, veloturizm va yovvoyi tabiatni kuzatish kabi ekologik xavfsiz yo‘nalishlarni taklif etadi. Xo‘jalik hududi mahalliy aholini ish bilan ta’minlaydi. Bu hududda an’anaviy turmush tarzini saqlab qolishga yordam beradi. Turizmning ushbu shakli Orolbo‘yining noyob ekotizimini asrash, hudud tabiati va madaniyatini qadrlovchi sayyohlarni jalb qilishga zamin yaratadi.

Turizm sanoatida ekologik toza texnologiyalar

Barqaror turizmning muhim shartlaridan biri tabiatga salbiy ta’sirni kamaytirishga qaratilgan texnologiyalardir. O‘zbekistonga xos issiq iqlim sharoitida quyosh energiyasidan foydalanish, ayniqsa, istiqbolli. Hozir mamlakatda dam olish maskanlari va sayyohlik majmualarida quyosh panellaridan faol foydalanilmoqda. Bu esa karbonat angidrid tashlanmalarini kamaytirish va an’anaviy energiya iste’molini qisqartirishga yordam beradi.

Ba’zi mehmonxonalar va mehmon uylari sayyohlarga biologik parchalanuvchi shampun va sovun kabi ekologik toza parvarish vositalari, suvni tozalash va qayta ishlash tizimlari singari innovatsiyalarni taklif etmoqda. Bunday choralar “yashil” tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlovchi sayyohlar uchun O‘zbekistonning jozibadorligini oshiradi.

Qolaversa, virtual sayohatlar va audioyo‘riqnoma kabi raqamli texnologiyalardan ham faol foydalanish mumkin. Bu maxsus muhofaza ostidagi tabiiy hududlarga keluvchilar sonini va ularga tushadigan yuklamani kamaytirish imkonini beradi. Masalan, qo‘riqxonalarga qiziquvchilar uchun qo‘riqlanadigan hududlarga jismoniy aralashuvni minimallashtiruvchi, onlayn “tashrif” imkonini beruvchi virtual yo‘nalishlarni yaratish mumkin.

Aholining ekologik xabardorligini oshirish muhim

Mazkur yo‘nalishni muvaffaqiyatli rivojlantirishda nafaqat infratuzilma, balki mahalliy aholi va sayyohlarning ekologik madaniyatini shakllantirish ham ahamiyatlidir. Ekologik xulq-atvor tabiat haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish, atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatdagi amaliy ko‘nikmalar, unga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishning ahamiyatini tushunish kabilarda namoyon bo‘ladi. Turli soha vakillari bilan muloqot, tajriba va g‘oyalar almashinuvi ham shular jumlasidan.

Ekologik madaniyatni ta’lim kampaniyalari, ma’rifiy tadbirlar va festivallar orqali shakllantirish mumkin. O‘zbekistonda iste’mol va chiqindilarni qayta ishlashni ommalashtirishga qaratilgan ekofestivallar hamda aksiyalar faol tarzda o‘tkazilmoqda.

Tabiat va madaniy merosni asrashning ahamiyatini tushuntiradigan sayyohlik dasturlari ham barqaror turizm rivojiga ta’sir ko‘rsatadi. Bu dasturlar sayyohlarning hududlarni tozalash, ko‘kalamzorlashtirish va mahalliy hamjamiyatni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tadbirlardagi ishtirokini nazarda tutadi. Masalan, sayyohlarga tabiat hududlarini tiklash, daraxt ekish yoki qo‘riqxonalarda ko‘ngilli yordam berish imkoniyatini taklif etish mumkin.

Yuksak ekologik madaniyatga ega mahalliy aholi tabiat muhofazasida muhim o‘ringa ega. Bu, ayniqsa, Qoraqalpog‘iston kabi noyob tabiiy hududlar uchun dolzarb bo‘lib, mahalliy hamjamiyat tabiatni himoya qilishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajribani qo‘llash mumkin

Dunyoda ekoturizmning muvaffaqiyatli tashkil etilishiga ko‘plab misollar mavjud. O‘zbekiston ulardan eng yaxshilarini o‘zlashtirish imkoniga ega. Masalan, Norvegiya milliy bog‘larga keluvchilar sonini faol cheklamoqda. Bu ekotizimni saqlab qolishga yordam beradi. Butanda turistlarni kvotalash tizimi amal qiladi. Bu mamlakatning ham ekologik, ham madaniy barqarorligi uchun zarur. Mazkur misollar ekologik barqaror turizmni yaratishga intilayotgan O‘zbekiston uchun mayoq vazifasini o‘taydi.

Xalqaro tashabbuslarda ishtirok etish va ekoturizmga ixtisoslashgan tashkilotlar bilan hamkorlik bunday dasturlar uchun kerakli mablag‘ va texnik yordamni jalb qilishga poydevor yaratadi. O‘zbekiston qo‘shma tadqiqotlar o‘tkazish va tajriba almashish uchun ekologiya va turizm sohasidagi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi mumkin. Bu atrof-muhit muhofazasini qadriyat sifatida ko‘radigan sayyohlar uchun yangi, jozibador mahsulotlar yaratishga yo‘l ochadi.

Agroturizm rivoji qishloq iqtisodiyotini yuksaltiradi

Sayyohlarni jalb etish va barqaror ekoturizmni rivojlantirish uchun O‘zbekiston o‘ziga xos mahsulotlar taklif qilishi lozim. Xususan, “Orolbo‘yi” milliy bog‘i ekologik sayohatlar, cho‘l va suv landshaftlari bo‘ylab ekskursiyalar, shuningdek, ekolagerlar hamda ilmiy ekspeditsiyalar maskani bo‘la oladi.

Bundan tashqari, qishloq turizmi (agroturizm) istiqbolli yo‘nalish sifatida O‘zbekistonning madaniy an’analari bilan tanishish imkonini beradi. Sayyohlar gilamdo‘zlik, kulolchilik, sopol va mato tayyorlash kabi an’anaviy hunarmandlik jarayonida qatnashib, noyob tajribaga ega bo‘lishi mumkin. Bu mahalliy aholi uchun ham manfaatli. Shunday dasturlar sayyohlarning mamlakat madaniyati va turmush tarzini bevosita his qilishi, hunarmandlik an’analarini saqlab qolishga ko‘maklashadi. Agroturizm rivoji qishloq iqtisodiyotini yuksaltiradi. Ilgari tushkun kayfiyat hukm surgan, boshqa faoliyat turlarini rivojlantirish uchun yaroqsiz sanalgan qishloq va ovullar iqtisodiyotda faol ishtirok etmoqda. Biroq turistik mahsulot sayyohlik resursidan farq qiladi. Turistik resursni to‘laqonli mahsulotga aylantirish jarayoni vaqt, katta kuch-g‘ayrat, professional yondashuv va moliyaviy qo‘llab-quvvatlov talab etadi.

O‘zbekistonda ekoturizm vaqtinchalik trend emas, balki sayyohlik sanoatining barqaror va uzoq muddatli rivojlanishi uchun poydevor bo‘la oladi. Ekologik me’yorlarni joriy etish noyob tabiiy hududlar va madaniy merosni asrash, mahalliy hamjamiyatlarni qo‘llab-quvvatlash va yangi sayyohlarni jalb qilish imkonini beradi.

O‘zbekiston uchun bu sohani mas’uliyat bilan rivojlantirish, mashhur sayyohlik yo‘nalishlarining xatolarini takrorlamaslik, ayniqsa, muhim.

Ekoturizm tabiatga ziyonni kamaytiribgina qolmay, yangi sarmoyalarni jalb qilish, ish o‘rinlari yaratish va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash orqali hudud iqtisodiyotini rivojlantirishga yordam beradi. Ilg‘or texnologiyalarni joriy etish va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik mamlakat tabiati va madaniy merosini asrash uchun zamin yaratadi. Ekologik turizm — davr talabi. O‘zbekiston esa Markaziy Osiyoda barqaror turizm imkoniyatlariga ega.





Islohotlar amalda

QASHQADARYODA ILK MUHANDISLIK MAKTABI ISH BOSHLADI

Joriy yil 20-iyunida muhandis kadrlar tayyorlash tizimidagi ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida Prezidentimiz bugungi murakkab vaziyatda barcha davlatlar ichki resurslarga tayanib, innovatsiyaga intilayotganini qayd etib, qator muhim masalalarga to‘xtalib o‘tdi.



Yig‘ilishdagi topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida bugun hududlarda amaliy ishlar boshlanib ketdi. Jumladan, yaqinda Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti va “Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi” MCHJ hamkorligida Gaz-kimyo va energetika ilg‘or muhandislik maktabi ochildi. Ushbu muhandislik maktabi kelgusida eng so‘nggi texnologiyalarni o‘zlashtirgan, innovatsiya, yangi g‘oyalar yaratish ko‘nikmasiga ega zamonaviy avlod muhandislarini tayyorlashga xizmat qiladi.

“Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi” MCHJ neft va gaz sanoati bo‘yicha Qashqadaryo viloyatidagi yirik korxonalardan biridir. Bu yerda gazni qayta ishlash uchun zamonaviy texnologiyalar o‘rnatilgan. Ko‘p sonli ishchilar mehnat qilsa-da, tajribali mutaxassislarga ehtiyoj seziladi. Shunga qaramay, neft-gaz yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumotga ega hamma bitiruvchi ham ushbu majmuada ishlab ketavermaydi. Sababi zavodda mehnat qiluvchilardan sohasini yaxshi bilish, malakali, bilimli va mas’uliyatli bo‘lish talab etiladi. Shu bois, ishga kiruvchi har bir yosh belgilangan me’yoriy talablardan o‘tishi kerak. Buning uchun esa talaba amaliyotda faol ishtirok etgan, yetuk bilimga ega bo‘lishi lozim.

— Korxona huzurida muhandislik maktabi ochilgani oliy ma’lumotli yoshlarning ish bilan ta’minlanishida juda muhim. O‘qishdan ajralmagan holda faoliyat yuritish yoshlarning kelgusida tajribali mutaxassis bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi. Ayni paytda maktabda ustoz-shogird an’anasi yo‘lga qo‘yilib, yigit-qizlar malakali, ko‘p yillik mehnat tajribasiga ega mutaxassislar boshchiligida ish o‘rganmoqda, — deydi “Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi” MCHJ bosh muhandisining energetika tizimi bo‘yicha o‘rinbosari Sheriddin Rahmonov. — Viloyatimizda neft-gaz yo‘nalishida ishlayotgan zavod va korxonalar ko‘p. Shu sababli bu yo‘nalishda mehnat qilishga imkoniyat katta. Vohada birinchilardan bo‘lib korxonamiz huzurida muhandislik maktabi ochilgani ko‘pchilikka ma’qul bo‘ldi. Bu loyiha qisqa muddatlarda ijobiy natija berishiga ishonaman.

“Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi” MCHJ ma’muriyati tomonidan muhandislik maktabiga 3 ta mutaxassislik bo‘yicha 24 magistrant saralab olindi. Loyihaga ko‘ra, maktabda magistrantlar nazariy mashg‘ulotlar bilan birga ishlab chiqarish jarayonida qatnashib, dual ta’lim oladi. Birinchi yili yangi mahsulotlarni loyihalashtiradi, ilmiy izlanishlar o‘tkazadi. Ikkinchi yilda esa yangi mahsulotlar bo‘yicha tajriba-konstruktorlik namunalarini yaratish bilan bog‘liq texnologik jarayonlarda ishtirok etadi.

— Yirik korxona huzurida ham ishlab, ham o‘qish sohani puxta o‘zlashtirishimiz uchun katta imkoniyat, — deydi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti magistranti Nasiba Abdurahimova. — Bu yerda har bir jarayonni kuzatib, nazariy bilimlarimizni amaliyotda qo‘llash mumkin. Ilgari faqat nazariy bilimga katta e’tibor qaratilgan. Qisqa muddatli amaliyotlarda esa ishlab chiqarish jarayoni xususida tushunchaga ega bo‘lishga vaqt yetmasdi. Hozir ikki kun oliygohda bo‘lsak, qolgan vaqtimiz majmuada o‘tmoqda. Korxonada yirik quvvatli uskunalardan foydalanilayotganini kuzatib boryapmiz. Ba’zilarini o‘zimiz boshqarib, ishlatish borasida tushunchaga ega bo‘lyapmiz. Bu borada tajribali mutaxassislar ustozlik qilmoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra, muhandislik maktabiga Malayziyaning Petronas texnologiyalar universiteti, Germaniyaning Drezden texnika universiteti, Rossiyaning Tomsk texnika universiteti, Belarus milliy texnika universitetidan malakali professor-o‘qituvchilar va mutaxassislar jalb etilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, bu yerda ta’lim jahondagi ilg‘or 300 talikka kirgan universitetlarning chuqurlashtirilgan modulli dasturlari, o‘quv rejalari, xorijda chop etilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalari asosida olib boriladi.

Mutaxassislar ta’kidlashicha, so‘nggi uch yilda viloyatdagi oliygohlarning o‘zida 3 mingdan ortiq yosh muhandislik yo‘nalishida diplom olgan. Ammo ularning iqtisodiyotdagi samarasi deyarli sezilmayapti. Shu bilan birga, joriy yilning hozirgi davriga qadar viloyatga yarim milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiya jalb qilingan. Investitsiyalarning asosiy qismi texnologiya ko‘rinishida kirib kelgan. Malakali injenerlar, texnologlar yetishmasligi sababli mahalliy tadbirkorlar oyiga 5-10 ming dollar to‘lab, chetdan mutaxassis olib kelib ishlatishga majbur bo‘lmoqda. Yangi investitsiyaviy loyihalarni yo‘lga qo‘yish, voha eksporti geografiyasini kengaytirish bo‘yicha katta marralar olingan. Albatta, bunda malakali mutaxassislarga kuchli ehtiyoj seziladi.

Kadrlar tayyorlash to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmas ekan, ko‘zlangan marralarga erishish muammoligicha qolib ketishi aniq. Yangi muhandislik maktabi esa buning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Unda tayyorlangan mutaxassislar yurtimiz iqtisodiyoti va sanoatini rivojlantirishga munosib hissa qo‘shadi.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Maxtumquli tavalludining 300 yilligiga









EZGULIK DIYORIDA VATAN QURGAN ALLOMA

Bu yil nafaqat turkiy xalqlar, balki jahon adabiyoti va madaniyatida o‘z o‘rniga ega atoqli shoir va mutafakkir Maxtumquli Firog‘iy tavalludiga 300 yil to‘ldi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 19-fevral kuni “Buyuk turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli Firog‘iy tavalludining 300 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi. Mazkur qaror asosida mamlakatimizda Maxtumqulining boy ijodiy-ma’naviy merosiga bag‘ishlangan tadbirlar bo‘lib o‘tmoqda.

6-noyabr kuni so‘lim kuzning baraka yomg‘iri tomchilayotgan bir pallada poytaxtimizdagi Maxtumquli ko‘chasida davlat va jamoat arboblari, Turkmanistonning O‘zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Shodurdi Meredov, Turkman madaniy markazi vakillari, turkmanistonlik mehmonlar, yozuvchi-shoirlar, keng jamoatchilik hamda ommaviy axborot vositalari vakillari to‘planib, shoirning yodgorlik lavhasi poyiga gullar qo‘ydi.

Shundan so‘ng Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatrida Maxtumquli Firog‘iy tavalludining 300 yilligiga bag‘ishlangan tantanali adabiy-ma’rifiy xotira kechasi bo‘lib o‘tdi. Unda taniqli davlat va jamoat arboblari, mehmonlar, yozuvchi-shoirlar, madaniyat-san’at namoyandalari, keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi.

Teatr foyesida Maxtumquli Firog‘iyning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan kitoblar hamda tasviriy san’at asarlari ko‘rgazmasi tashkil qilindi. O‘zbek va turkman milliy kuy-qo‘shiqlari ijro etildi.

O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov, Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid, Turkmanistonning O‘zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Shodurdi Meredov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, taniqli shoir va tarjimon Mirzo Kenjabek, Kinematografiya agentligi direktori Shuhrat Rizayev so‘zga chiqib, o‘zbek va turkman xalqini bir necha asrlardan beri birlashtirib kelayotgan ma’naviy-ma’rifiy rishtalar haqida gapirdi.

— TURKSOY xalqaro tashkiloti 2024-yilni “Maxtumquli yili” deb e’lon qilgani ulug‘ shoir tarannum etgan g‘oyalarning qanchalar hayotbaxsh ekanidan dalolat beradi, — dedi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid. — Mustaqillik yillarida Maxtumquli she’rlarining yangi tarjimalari paydo bo‘ldi. Xususan, taniqli shoir va tarjimon Mirzo Kenjabek Maxtumqulining 170 ta, asosan, ilgari hukmron mafkura yo‘l qo‘ymagan diniy-tasavvufiy mazmundagi she’rlarini ilk bor o‘zbekchalashtirib, chop qildirdi. Bu kitob “Saylanma” deb atalib, undan tarjimonning “Maxtumquli — valiy shoir” degan kirish maqolasi ham o‘rin olgan. 2017-yilda filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Karim Maxtumqulining otasi, shoir Ozodiyning g‘azallarini o‘zbek tiliga tarjima qildi.



Darhaqiqat, keyingi yillarda o‘zbek-turkman adabiy aloqalari yanada rivojlandi. 2022-yilda chop etilgan “Turkiy adabiyot namunalari” 100 jildlik asarlar majmuasining 9 ta jildi turkman adabiyotiga ajratilgan. Undan turkman mumtoz adabiyotidan to bugun ijod qilayotgan shoir va yozuvchilar asarlarining o‘zbekcha tarjimasi o‘rin oldi. Turkmaniston adabiyotiga ajratilgan ushbu jildlar Ozodiy g‘azallari bilan boshlanadi. Turkman mumtoz adabiyotidan Mullanafas, Maxtumquli, Andalib, Zaliliy, Kamina, Oshiqiy, XX asr adabiyotidan Xidir Deryayev, Berdi Kerboboyev, Qayum Tangriquliyev, Oraz Yag‘mur, Otajon Tog‘on romanlari kiritilgan.

— “Olamda odam qolmas nom qoladi” degan hikmat Maxtumquli qalamiga mansub, — deydi O‘zbekiston Kinematografiya agentligi bosh direktori Shuhrat Rizayev. — Darhaqiqat, mana uning tavalludiga 300 yil bo‘ldiki, Maxtumqulining nomi barhayot. Uning badiiy tafakkuri mevalari insoniyatni ezgulikka chorlab, adabiyot va san’atga ishtiyoqmand qalblarni she’rlari, qo‘shiqlari to‘lqinlantirib kelmoqda.

11-oktabr kuni Turkmanistonda Maxtumquli tavalludining 300 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan xalqaro forumda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Maxtumquli o‘zbekning o‘z shoiri”, deya ayni haqiqatni ta’kidlab o‘tdi. Davlat buyurtmasi asosida Maxtumquli Firog‘iyga bag‘ishlab suratga olingan badiiy filmda biz ikki xalq o‘rtasidagi ana shu asriy haqiqatlarni ko‘rsatib berishga harakat qildik. O‘zbekiston va Turkmaniston kino ustalari hamkorligida yaratilgan ushbu film yosh rejissyorimiz Muzaffar Erkinov boshchiligida O‘zbekiston va Turkmaniston kinoijodkorlari hamkorligida qisqa vaqtda suratga olindi. Undagi asosiy rollarni o‘zbek aktyorlari — Boir Xolmirzayev, Rasulxon Qodirxonov, Sirojiddin Sattorov, turkman aktyorlari — Chori Berdiyev, Ahmed Omondurdiyev, Lola Roziyeva ijro etdi.

“Oqil kishi vatan qurib, el tuzar”, deydi Maxtumquli. Chindan ham umuminsoniy g‘oyalar uchun kurashadigan, ijod qiladigan har bir inson ezgulik diyorida bir vatan qurgayki, uning eli mangulikka daxldor bo‘lgusidir. Ayni haqiqat asosida yangragan mumtoz qo‘shiqlar va sahna ko‘rinishlari ishtirokchilar qalbiga o‘zgacha shukuh va surur bag‘ishladi.

Zero, ushbu adabiy-ma’rifiy anjuman o‘zbek va turkman xalqlari adabiyoti, san’ati, ma’rifatidagi hamohanglik, mustahkam adabiy rishtalarimizning yana bir yorqin namunasi bo‘ldi.

Muxtasar TOJIMAMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

QO‘BIZ VA JIROVCHILIK *elga qaytmoqda*



Boqiy meros

“Nihol” va “Mard o‘g‘lon” davlat mukofotlari sohibi Dao‘ranbek Yendirbayev dastlab baxshichilikni o‘rgandi. Janibek Piyozovga shogird tushib, saboq oldi. Keyinchalik qo‘biz tovushiga shaydo bo‘ldi, jirovlikni o‘rganishga qaror qildi. Nasihat, terma-to‘lg‘ovlar bilan birga “Yedigey”, “Yershora” va “Alpomish” dostonlaridan parchalar ijro etdi. Mana, 10 yildirki, Qoraqalpog‘iston xalq jirovi Baqbergen Sirimbetovdan mazkur san’at sirlarini o‘rganib kelayotir.

Qo‘biz ajdodlarimizdan qolgan qadimiy cholg‘u asbobi. U bilan bog‘liq jirovlik san’ati madaniy merosimizning ajralmas qismi sanalib, xalqimizning necha ming yillik tarixida ko‘plab jirovlar bo‘lganidan darak beradi. Ushbu an’anani davom ettirishda muammolar ham mavjud: ijro etuvchi jirovlar, mohir hunarmandlar kamayib boryapti. Yosh avlod bu san’at turidan yetarlicha boxabar emas. Bundan tashqari, kelajak avlodga ma’lumot va bilim yetkazish borasida qiyinchiliklar kuzatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining UNESCO bilan hamkorlikda qadimiy qo‘biz cholg‘u asbobi va jirovlik san’ati an’analarini saqlab qolishga qaratilgan amaliy sa’y-harakatlari natijasida ushbu muammoning oldini olish imkoni paydo bo‘ldi. So‘nggi paytlarda qo‘biz va jirovlik an’analarini saqlab qolish maqsadida ko‘plab ishlar bajarilmoqda.

— Imkon darajasida qo‘biz va jirovlik san’atini rivojlantirish, qayta tiklash va saqlab qolishga qaratilgan “Milliy cholg‘u asbobini chalish va chalish an’analarini saqlash bo‘yicha tezkor chora-tadbirlar” loyihasi doirasida amaliy seminar-treninglar o‘tkazilmoqda. Loyiha UNESCOning 2003-yilgi konvensiyasi Nomoddiy madaniy meros jamg‘armasi tomonidan moliyalashtirilgan. Qo‘biz va jirovlik san’atini saqlab qolish loyihasi doirasida o‘tkazilayotgan mazkur seminar-treninglarda mutaxassislar yoshlarga qo‘biz yasash sirlarini o‘rgatayotir. Jirovlar bu san’atni o‘rgatishga e’tibor qaratmoqda. Milliy ekspertlar, xususan, xonandalar, ustalar va madaniy meros jonkuyarlari ishtirokida o‘tkazilayotgan tadbirlar samara beradi degan niyatdamiz, — deydi loyiha mutaxassisi Nargiza Qodirova.

Qoraqalpoq dostonlarining so‘zi ham, sozi ham bir butun birlikni tashkil etadi. Xalq qahramonlik dostonlari ko‘pincha qo‘biz, liro-



epik dostonlar esa dutor bilan ijro etiladi. Jirov qo‘biz soziga moslab tomog‘ini qirib aytsa, baxshi ovozini dutor kuyiga solib, erkin aytadi. Jirovlar repertuaridagi qahramonlik dostonlari baxshilar dostonidan butunlay farq qiladi. Jirovlar repertuarida sevgi-muhabbat haqidagi dostonlar emas, qahramonlik qo‘shiqlari ijro etiladi. Qo‘shiqlar bilan dostonlar qoraqalpoqlar tilini, poeziyasini, etnografiyasini va mahalliy turmush tarzini o‘rganish uchun boy materialga ega manbadir. Shuning uchun ham etnograf Shoqan Ualixanov qoraqalpoqlarni sahrodagi birinchi shoirlar va qo‘shiqchilar deya ta’riflagan.

— Jirovlar tomoshabinlar yig‘ilgunga qadar dastlab pandu nasihat qilgan, so‘ng dostonlar ijro etgan. Dostonni ijro etishdan oldin jirov repertuaridagi dostonlar haqida ommaga ma’lum qilgan. Ularning orasidan xalq talab qilganlarinigina aytgan. Tinglovchilar orasida yoshi ulug‘, ko‘pni ko‘rgan, doston ijro etuvchilarni tinglagan kuzatuvchi-tanqidchilar ham bo‘lgan. Jirov dostonni buzib, oldingi namunadan chiqqan holda ijro etsa, kuzatuvchilar jirovni to‘g‘ri yo‘lga solib, yo‘naltirib o‘tirgan. Shuning uchun ham har bir jirov qaysi dostonni ijro etsa, shunga javobgar bo‘lgan, — deydi Baqbergen Sirimbetov. — Ushbu an’analarni davom ettirish, ustalarning yoshlarga qo‘biz yasashni, jirovlarning jirovlikni o‘rgatishi uchun amaliy seminar-treninglar o‘tkazilishi qadimiy san’at an’analarini saqlab qolishda katta ahamiyat kasb etadi.

— Qo‘biz va jirovchilik otadan bolaga meros bo‘lib kelmoqda. Unutilayotgan ushbu merosni saqlashimiz va keyingi avlodga yetkazishimiz kerak, — deydi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali talabasi Samandar Turdibayev. — O‘zim qo‘biz bilan “Yedigey”, “Alpomish”, “Yerziyuar” va “Aydosbiy” dostonlaridan parchalarni sevib ijro etaman.

“Jir” so‘zi qoraqalpoqlar orasida qadim zamonlarda tarqalgan. Uning asosida “jirov” atamasi paydo bo‘lgan. Taxminan XIV asrda “jirov” so‘zi qoraqalpoqlar orasida qo‘llangan bo‘lishi mumkin degan taxminlar mavjud. Qoraqalpoq tilida doston ijro etuvchi jirov va baxshilar hamda ularning cholg‘u asbobi bo‘lgan qo‘biz, dutor ayro tushunilmaydi.



— Qoraqalpoq jirovlari tarixi juda qadimiy. Soppasli Sipira jirovdan boshlab, Karam jirov, Nag‘im jirov, Yesemurat jirov, Berdimurat jirov va undan keyin Jumabay jirov, Jaqsiliq jirov xalqimiz orasida juda mashhur bo‘lgan. Ustozim va padari buzrukvorim, O‘zbekiston xalq hofizi, Qoraqalpog‘iston xalq jirovi Jaqsiliq Sirimbetov jirovlikni ustozi Qiyas jirovga shogird tushib o‘rgangan. Otamning repertuarida “Alpomish”, “Qirqqiz”, “Yedigey”, “Maspatsha” dostonlari bor. Hozir otamning kasbini men davom ettirib kelyapman. Ustoz sifatida 30 ga yaqin shogird chiqardim. Ular jirovlik yo‘nalishini rivojlantirishga hissa qo‘shmoqda, — deydi Baqbergen Sirimbetov. — Qoraqalpog‘iston juda ajoyib o‘lka. Madaniy merosi bilan qancha maqtansak, arziydi. Navbatdagi loyihamiz qo‘biz va jirov ijrochiligini davom ettirishga xizmat qiladi.

Jirovlik bilan shug‘ullanib kelgan Jumaboy Bozorovni ko‘pchilik yaxshi taniydi. Qoraqalpog‘iston xalq jirovi Jumaboy Bozorov Yesemurat jirov Nurabillayevdan o‘tgan asrning 50-yillarida qo‘biz chalish, dostonlar va baxshichilik sir-asrorlarini qunt bilan o‘rgangan.

1970-yillardan boshlab tanlovlarda faol ishtirok eta boshlagan baxshining nafaqat Markaziy Osiyoda, balki Yevropa davlatlarida ham muxlislari, ijodini yuksak e’tirof etgan olimlar ko‘p. Masalan, 1981-yili Germaniyaning Bonn universiteti professori Karl Rayxl ataylab Qoraqalpog‘istonga keladi. Jumaboy jirovga bir necha dostonlarni ijro qildirib, ulardan parchalar yozib oladi. Keyinchalik ushbu olim Jumaboy jirov haqida uch tilda kitob nashr qildiradi. Mashhur jirov Jumaboy Bozorovning “Shariyar”, “Qoblan”, “Yedigey”, “Ormanbetbiy hasrati”, “Ota darkor yigitga”, “Ne jaman” kabi termalari hozir radio va televideniye oltin fondida saqlanib kelmoqda.

— Baxshichilik san’ati rivoji milliy soz yasovchi ustalar ishi bilan uzviy bog‘liq. Qo‘biz bilan ishlash bo‘yicha dastlab xalq baxshisi Jumaboy Bozorov o‘gitiga amal qilgan bo‘lsam, hozir uning farzandlari, shogirdlaridan maslahat olib turaman. Sozni jirovning ovoziga moslab yasashga harakat qilaman. Qo‘biz qo‘l mehnati mahsuli. Unga yog‘och, hayvon terisi, ot yoli tanlanib, talab darajasida mahorat bilan ishlanmasa, sozdan sado chiqmasligi, baxshi ovoziga mos kelmasligi mumkin. Musiqa asbobini yasashga qiziqqanim uchun Ozod O‘tarboyevga shogird tushganman. Ustozim olamdan o‘tgunga qadar undan cholg‘u asboblari yasashni o‘rgandim, — deydi shumanaylik Nazarboy usta Qadirimbetov. — Hozir qoraqalpoqlarning milliy sozi — qo‘biz, olamo‘ynoq dutor, girjak yasayman.

So‘nggi yillarda baxshichilik san’ati rivojiga katta e’tibor qaratilyapti. Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish an’anasi yo‘lga qo‘yildi. Bu yo‘nalishdagi islohotlarning yorqin misolini Nukus shahrida tashkil etilgan Opera va baxshichilik san’atiga ixtisoslashtirilgan maktab misolida ko‘rish mumkin. Mazkur maktabning ochilishi san’atga ishtiyoqmand qoraqalpog‘istonlik yoshlarning orzu-istaklari ro‘yobi bo‘ldi. Davlatimiz rahbari “Baxshilar nafaqat o‘tmishning aks sadosi, bugungi kunning ham jarangdor ovozidir”, deya ta’kidlaydi. Darhaqiqat, bizni o‘tmish bilan bog‘lovchi baxshi va jirovlar dostonlar orqali tarbiyaviy-estetik ta’lim berib kelmoqda.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 3883.
41157 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zA yakuni — 00:10 Topshirildi — 00:50